

جدید

2025-yil 3-oktyabr
№ 40 (92)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

SIYOSIY QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH HAFTALIGI

AVVAL VATAN, KEYIN JON

Bu shiorni tasavvuf ilmining yetuk namoyandalaridan biri, Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro aytgan, degan rivoyatlar bor. Ulug' olim kuch-qudratda tengsiz bo'lgan mo'g'ul qo'shiniga yuzlana turib, o'z shogirdlariga bergan topshiriqlarini shu so'z bilan yakunlagan ekan. Aytimdan murod esa: to shogirdlar jon va Vatan tanlovi qarshisida qolsa, bilib olsinlar, eng birinchi tanlov hamisha Vatandir.

Shayx Najmiddin Kubroning bu so'zlari shunchaki aytilgan xitob emasligini shogirdlari tezda chuqur iztirob bilan anglaganlar. Negaki, piri komilning o'zi istibdodga qarshi kurashda mardona jon beradi... Bu tariqa shahid bo'lgan Vatan farzandlari kam emas. Bilganlarimizdan bilmag'animiz ko'p. O'z xalqining jasur yetakchisi Alp Er To'nga zamonidan, ehtimol, undan-da avvalgi zamonlardan to yaqin davrlargacha turkiy xalqlarning Vatan ozodligi va mustaqillik uchun kurashi bir lahza to'xtagan emas.

Bugun ozod xalqimiz va uning odil yetakchisi "Avval Vatan, keyin jon" deya kurashgan jasur ajdodlarimizning porloq xotirasini munosib tarzda



abadiylashtirishga bel bog'lagan. Va bu borada birlamchi e'tiborni tariximizning yaqin kunlariga, siyosiy qatag'onga uchragan jadidlar faoliyatiga qaratgan, desak, adashmagan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurt-doshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori va unda mam-lakatimizda har yili oktyabr oyining birinchi haftasini Siyosiy

qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash belgilangani so'zimizning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2021–2024-yillar mobaynida 1200 dan ortiq qatag'on qurboni oqlanganini alohida e'tirof etmoq joiz. Barcha turdagi ta'lim muassasalarida maxsus darslar, uch avlod uchrashuvlari, spektakl va hujjatli filmlar namoyishi, internet orqali targ'ibot faol tus olgan. Jadidlar merosi va faoliyatini yoshlarga ibrat maktabi sifatida yetkazish ishlarida jiddiy qadamlar tashlanmoqda.

QATAG'ONLAR SILSILASI

1937–1938-yillarda sodir etilgan "katta terror" nafaqat O'zbekiston ahli, balki sobiq ittifoq hududida yashagan barcha xalqlar uchun unutilib bo'lmas xunrezlik, qatag'onlarning eng qonli pallasi sifatida tarixdan joy olgan. Bugun ayrim manqurt kimsalar bilibilmay qo'msayotgan qattol Stalin boshqaruvi davrida "xalq dushmanlari"ni yo'qotish bahonasida yuz minglab insonlar nohaq otib tashlangan, millionlab odamlar turma va

lagerlarga qamalgan. Shu tariqa ma'naviy elita yo'qotilgan.

Bu davrda O'zbekistonning siyosiy rahbariyati qisqa fursat ichida butunlay almashtirilgan. Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi o'nlab iste'dodli adiblar, yuzlab olim va ziyolilar, davlat arboblari "millatchi", "panisломchi", "pan-turkchi" yoki "josus" degan ayblovlar bilan qatag'on qilingan. Ularning asarlari, ilmiy merosi ham yo'qotilgan yoki qat'iy senzura ostiga olingan.

Tarixchilarning hisob-kitobiga ko'ra, 1937-1938-yillarda sobiq ittifoq hududida kamida 1,5 milliondan ortiq kishi qamalgan, ularning taxminan 681 ming nafari otgan. Qizil terror natijasi bo'lgan qatag'onlardan faqat o'zbek xalqi emas, deyarli barcha millatlar jabr ko'rgan. Aynan mana shu jihati bilan "katta terror"ni umumbashariy fojia deyish mumkin.

Aslida, ildizi qadim ming yilliklardan suv ichuvchi o'zbek xalqining boshidan bu kabi qatag'onlar ko'plab o'tganiga tarix guvoh. Uzoq o'tmishni qo'yaylik, birgina 1865–1917-yillar mobaynida Chor Rossiyasining bosqini, Toshkent ishg'oli, Qo'qon xonligining tugatilishi, Turkiston qo'zg'olonining shafqatsiz bostirilishi natijasida milliy davlatchiligimizning yo'qotilishini yodga olaylik.

(Davomi 2-sahifada.)

MULOHAZA

DUNYOGA TUTILGAN KO'ZGU



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining yaqinda bo'lib o'tgan 80-yubiley sessiyasida dunyodagi murakkab geosiyosiy jarayonlarga to'xtalib, xalqaro institutlar nufuzi zaiflashib borayotgan bir vaziyatda global hamjihatlikni mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidladi. Prezidentimizning bu ma'ruzasini, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi dunyoga tutilgan ko'zgu, deb atash mumkin. Keling, jahon ayvonida kechayotgan manzaralarga bir qur nazar tashlaylik.

(Davomi 3-sahifada.)

FAKT

- Yevropa parlamentida "O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi: demokratik islohotlarni va gender tenglikni ilgari surishda parlamentlararo muloqotning roli" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.
- O'zbekistonlik olim Shahlo Turdiqulovga Jahon Fanlar akademiyasi (TWAS) akademigi diplomini topshirildi.
- Xalqaro shaxmat federatsiyasi tomonidan 2025-yil oktyabr oyi uchun e'lon qilingan turli yosh toifalari TOP-100 likning yangilangan reytingidan O'zbekiston terma jamoasining 12 nafar a'zosi joy oldi.
- Ozərbaycan davlati mezbonlik qilayotgan III MDH o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi ayni damga kelib 3 ta oltin, 8 ta kumush hamda 17 ta bronza medallarini jamg'ardi.

TILLA SANDIQ

O'ZBEK TILI

o'zbekona tafakkur tili bo'lsin



Bu olamda har bir xalqning mavjudligi va ma'naviy qiyofasi uning milliy tilida namoyon bo'ladi. Shu bois, milliy til – ota-ona va Vatandek tabarruk tushunchalar sirasiga kiradi. Madaniyatli xalqlar o'z tillari yer yuzining barcha qit'alarida keng tarqalishi, shu tilda boshqalarning so'zlashi bilan faxrlanadilar. Har bir millat tilining asrlardan asrlarga o'tishi va insonlarga muloqot maqomini saqlab qolishi uchun o'sha til sohiblarining mehr-muhabbati, diqqat-e'tibori, fahm-farosati hamda o'sha tilda yozilgan jahonshumul ilmiy-adabiy manbalar vosita bo'ladi.

Har qanday milliy til inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Insonning nutq tahlili natijasida uning "men"ini anglab, qanday shaxs ekanini bilib olish qiyin emas. Til vositasida odamlar nafaqat muloqot qiladi, balki bir-birining

tabiati, turmush tutumi va ijtimoiy mavqeyiga ham baho beradi. Shu bois, ko'pgina filologik ta'lim markazlarida psixolingvistika, sotsiolingvistika, kulturalingvistika, psixobiografiya kabi sohalar boshqa fanlar bilan uyg'un o'rgatiladi.

Abdurauf Fitrat o'zbek tilini dunyodagi "eng boy, eng baxtsiz" deb sifatlaganiga salkam bir asr bo'ldi. Darhaqiqat, o'zbek tili XX asrning bir necha o'n yillari davomida ham shu "eng baxtsizlik" tamg'asidan qutula bilmadi. Faqatgina davlat tili maqomi berilgach va Istiqlol yillarida o'zbek tili o'mganini, mavqeyini baland ko'tardi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi oddiy hodisa emas. Men Mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidek muazzam tarixiy voqeani tabiatda yuz beradigan bir hodisaga o'xshataman.

(Davomi 4-sahifada.)

OLIM-U ILM-U AMAL

"...Domla, avvalo, mumtoz tarjimashunoslik bobida maktab yaratdilar. Xorazm tarjima maktabiga oid ulkan tadqiqot orqali o'zbek mutarjimlik san'ati ko'p asrlik tarixga ega ekanini ko'rsatib berdilar. Unga qadar ilmda "o'zbek tarjima san'ati ruslar sharofati bilan vujudga kelgan" degan da'vo ilgari surilgan edi. Najmiddin Komilovning dissertatsiyasi ilovasida Xorazm tarjima maktabining yuzdan ziyod namunasi keltirilganki, shu birgina fakt o'zbek tarjima san'atining ildizi nechog'li chuqur va baquvvat ekanini tasdiqlaydi..."



(5-sahifada o'qing.)

BUGUNNING SHE'RI

QATAG'ON DAVRIGA CHIZGI

Aniq – u zo'rniki, tomoshasi ko'rniki.


Til – aybdor, quloq – guvoh,

Qozi – o'zi, rozi – o'zi.

Ozor bermay tosh ko'ngliga

"Zamon nozik" deb qo'yishar

yumshoqqina odamlar.



(Davomi 4-sahifada.)

MOZIYGA QAYTIB

"O'TKAN KUNLAR" BOSHIDAN O'TGAN KUNLAR



1

Stalin hukumati otamiz Habibullo Qodiriy (1918–1988)ni ham "xalq dushmanining o'g'li" degan tamg'a bilan qamagan. U kishi hayotining o'n yilini mahkumlikda o'tkazgan. Otam o'sha yerda bo'lgan bir voqeani quyidagicha eslagandi:

"1949-yilning oxiri – 1950-yilning boshlari edi. Shimoliy O'rol lagerlaridagi (unda qirqdan ortiq lager bor edi) barcha siyosiy mahbuslarni etap qilib, qizil vagonlarga ortib Qarag'anda shahriga keltirdilar.

...Kunlarning birida peshinlik qilib tibbiy bo'limga kelsam, bir kishi meni kutib o'tirar edi. Ko'rishib, so'rashdik. U toshkentlik, o'zbek, bugun etap bilan lagerimizga kelgan ekan. Ism-sharifi xotiramda qolmagan, past bo'lyi, moshguruch soqol-murtli, shilpiq ko'z, ellik yoshlardagi kishi edi. U bizga yaqin bo'lgan O'qchi mahallasida turar va shu mahallaning raisi bo'lgan ekan.

(Davomi 6-7-sahifalarda.)

ISLOHOT CHORRAHASIDA

O'mon – Arabiston yarimorolning janubi-sharqiy qismida joylashgan davlat. Maydoni – 309,5 ming kvadrat kilometr. Aholisi – 5,3 million kishi (2025). Poytaxti – Maskat shahri. Ma'muriy jihatdan 59 viloyatga bo'linadi. Sho'ro kengashi va Davlat kengashidan iborat O'mon Kengashi maslahat organi mavjud. Ijrochi hokimiyatni sulton va hukumat amalga oshiradi.



BEHBUDIY VA SULTON QOBUS

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori yirik olim qoldirgan ilmiy-ma'rifiy merosni teran o'rganish va uning faoliyatini xalqaro ilmiy maydonga olib chiqishda muhim qadam bo'ldi.

(Davomi 3-sahifada.)



AVVAL VATAN, KEYIN JON

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu istibdod hadsiz-hisobsiz qatag'onlarga olib kelmaganmidi o'shanda?! Undan keyin-chi?

1920-yillarda milliy ozodlik uchun kurashgan "bosmachi"larga qarshi qatliomlar, dehqonlar, ulamolar, milliy kadrlar ularning "tarafdor"i sifatida jazolanishi, qamalishi, surgun qilinishi yoki otib tashlanishi, 1940–1950-yillarda diniy erkinlikka berilgan zarba natijasida masjidlari yopilib, ulamolarning qamalishi, oqibati hech kimni qiziqtirmagan ommaviy deportatsiyalar tarixiy xotiraga tushgan chandiq kabi ko'zga tashlanadi. 1980-yillarda O'zbekistonda "Paxta ishi" tufayli minglab insonlar taqdirining vayron bo'lishi, 1980-yillar oxiridagi milliy uyg'onishga qarshi bosimlar o'sha kunlarni ko'rganlar yodidan chiqarmikan? Aytilish mumkinki, Chor Rossiyasi va undan keyingi mustabid tuzum tufayli yuzaga kelgan qatag'on turli shakllarda olib borilgan tizimli siyosatga aylangan.

“BOSHSIZ JAMIYAT” TAMOYILI

Siyosiy qatag'onlar bejiz amalga oshirilmagani, albatta, barchaga

ayon. Jamiyatning ongi, g'oyaviy rahbarlari bo'lmish ziyolilarni yo'q qilish – hamma davrlarda ham xalqni "yetakchisiz omma"ga aylantirishning eng tezkor yo'li hisoblanadi. Totalitar tuzum uchun bu ikki maqsadga xizmat qiladi. Birinchisi shaxsiy hokimiyatni mutlaqlashtirish va raqobatni yo'qotishga oid bo'lsa, ikkinchisi g'oyaviy xarakter kasb etadi, ya'ni milliy uyg'onish va mustaqil fikr manbayini cheklashga qaratiladi.

Bunday sharoitda bosqinchi tuzumga xizmat qiladigan kollaboratsiya mexanizmi ham oson ishlaydi. Shu o'rinda istilochilikdagi kollaboratsiya mexanizmi atamasini izohlab o'tsak. Bosqinchilikdagi bu mexanizm mahalliy aholi yoki elitaning bosqinchilar bilan hamkorlik qilishini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash vositalari yig'indisi bo'lib, u siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy yo'llar bilan amalga oshiriladi. Natijada bir necha avlod davomida intellektual uzilish, ma'naviy so'nish va ijtimoiy inersiya yuzaga kelib, milliy g'oyani himoya qiluvchi "miyalar"siz jamiyatda qarshilik resurslari so'nadi va uni boshqarish osonlashadi. Afsuski, sobiq ittifoq davrida bu mexanizm juda faol va shafqatsiz ishlab turgan. Siyosiy qatag'onlar uning bir ko'rinishi edi.

XOTIRANING TARIXIY, MILLIY VA SIYOSIY AHAMIYATI

E'tiborsiz qoldirish va unuttirish g'oyaviy raqibni yakson qilishda eng ko'p kuzatilgan va o'zini oqlagan qabih usullardan biri ekan. Vatan ozodligi va xalq hurriyati yo'lida faol kurashib, shu yo'lida jon bergan ajdodlar nomini unuttirish siyosati O'zbekiston mustaqil bo'lgunga qadar davom etdi. Bugun qatag'on qurbonlarining nomlarini tiklash tarixiy adolatni tiklash bilan barobar bo'lib, milliy o'zlikni anglash yo'lidagi g'oyat muhim qadamdir. Mamlakatimizda mustaqillik fidoyilarining shonli tarixi va bebaho merosi chuqur o'rganilar ekan, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida milliy g'urur va Vatanga sadoqat, o'zlikni anglash va ma'rifatparvarlikka intilish tuyg'ulari kuchayadi. Jamiyatimizda demokratik madaniyat mustahkamlanadi. Bu faqat tarixni o'rganishga qaratilgan harakat emas, balki xalq xotirasini uyg'otish bilan bog'liq milliy iroda namoyishidir.

O'ktam HAMRAALI

HAMISHA XALQIMIZ QALBIDA

2024-yildan e'tiboran har yili oktyabr oyining birinchi haftasi Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida belgilangan. Bu yil ushbu xayrli tadbir Xotira va tarbiya haftaligi sifatida o'tkazilmoqda. Bu muhim sananing aynan mana shu vaqtda o'tkazilishi sobiq mustabid tuzum davrida xalqimiz boshiga tushgan mudhish tarixiy voqealar bilan bog'liq.

1938-yil 4–15-oktyabr kunlari SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi Toshkent shahrida o'tkazilgan. Ularda o'zbekistonlik 507 nafar shaxs taqdiri hal etilgan. Sayyor sessiya raisi, harbiy yurist Alekseyev O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari,

Xolmuhammad, Abdullayev Xayrulla, Ataulayev Xayrulla, Abdusattarov Sodiq, Sattorov Xoshim, Inag'omjonov Ilhomjon, Mahmudxo'jayev Nuriddin, Tursunxo'jayev Sa'dulla, Sharipov Kamol, Aydarov Ahmadbek, Xismetov Hikmatulla, Devonov Yoqub, Beregin Qurbon, Obubakirov Karim, Faysayzi Xodi, Ahmadbekov Davronbek, Odili Muhammad, Ahmedov Akbar (Abdulla Qodiri) va uning safdoshlari ham shu kuni qatl etilib, hukmnomasi ertasiga – 5-oktyabrda rasmiylashtirilgan).

Ayni 4–15-oktyabr kunlari harbiy kollegiya yig'ilishlarida qatag'onning 2-toifasi bo'yicha 70 mahbus 10–15 yil muddat bilan qamoq jazosiga hukm etilgan. 15 nafar siyosiy mahbusning ishi qayta tergovga qoldirilgan. Yana bir achinarli jihat, tergov jarayonida 7 nafar mahbus vafot etgan. Bular: Is'hoqov G'ani, Majidov Sayfulg'abid, Mamasodiqov Karimohun, Seyfulmulyukov Ahmad, Haydaraliyev Munobar, Hamidxonov G'anixon, Yurchenko Vladimir. Harbiy kollegiya sayyor yig'ilishida 1-toifa bo'yicha ayblanganlar – Karimov Abdulla, Ramziy Mannon, Tojiyev Abdulhay, Sexer Aron, Shermuhammedov Mirmuslimning ishi Moskvada ko'rilgan.

Qatag'on qurboni bo'lgan 37 nafar yurtdoshimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar "O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari" kitobida hamda "Vodiynoma" jurnali va "Jadid" gazetasida e'lon qilingan.

Prezidentimiz Xotira va tarbiya haftaligining ahamiyatiga urg'u berib: "Bu haftalikda xalqimizga nimalarni yetkazamiz, yoshlarimizga nimani o'rgatamiz? Tarixchi olimlar, yozuvchi-shoirilar bilan birga buni chuqurroq o'ylab, xalqchil, ommabop qilib yo'lga qo'yish kerak. Maktab va universitetlarda qo'shimcha darslar, telekanallarda maxsus ko'rsatuvlar berish, yoshlar o'rtasida tanlovlar o'tkazish mumkin. Mustaqillik qanday buyuk ne'mat ekanini, qanday kuchli ajdodlarimiz borligini elning qon-qoniga singdirish kerak. Agar yoshlarimiz ruhan kuchli bo'lsa, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yadi, fanlarniyam yaxshi o'rganadi, yetuk shaxslar bo'lib yetishadi", deya ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Jadid" gazetasining ilk sonidan buyon "Moziyga qarab..." sahifasi tashkil etilgan. Unda millat fidoyilari haqida yangi va sarmazmun maqolalar, qatag'on qurbonlarining ro'yxati berib boriladi.

Maxsus haftalik biz – olimlarga ham yangi-yangi izlanishlar olib borish va qo'lga kiritgan ma'lumotlarni keng ommaga taqdim etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

– Ayni kunlarda Xotira va tarbiya haftaligi davom etmoqda. Bu tadbir Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga bevosita daxldordir. Suhbatni ushbu muassasaning bugungi faoliyatidan boshlasak.

– Muhtaram Prezidentimiz joriy yil Shahidlar xotirasi xiyobonida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniyalar, ziyolilar bilan uchrashib: "Vatanimiz fidoyilarini ulug'lash, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha ko'p ishlar qilyapmiz. So'nggi sakkiz yilda 1 ming 200 dan ziyod jafokash bobolarimiz nomi oqlandi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi rekonstruksiya qilinib, minglab yangi hujjatlar bilan to'ldirildi. Hududlarda ham shunday muzeylar tashkil etildi. Bu yil jadid harakati yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlayapmiz. Buxoro shahrida Jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil qilinmoqda. Endi ularning mazmunini, "tirik" tariximizni xalqimizga kengroq yetkazish kerak", deya ta'kidlagan edi. Muzeyimiz jamoasi ana shu tarixni xalqqa yetkazish masalasi bilan bevosita shug'ullanib kelmoqda.

Bugunining muzeyi turg'unlikni ko'tarmaydi. U faqat mavjud eksponatlar bilan cheklaniib, ularni qo'riqlab o'tiradigan bo'lsa, ko'pga bormay mavqeyini ham, tashrif buyuruvchilarni ham yo'qotadi. Bunda, albatta, xodimlardan fidoyilik talab etiladi, biroq davlat tomonidan e'tibor va moddiy qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, oldinga siljish imkonsiz.

Shu ma'noda, so'nggi sakkiz yilda Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Muzey faoliyatini yanlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, vakolatlarini kengaytirishga doir o'ndan oshiq maxsus hujjatlar imzolandi. Yaratib berilgan imkoniyatlar samarasi o'laroq, mazkur muzey va hududlardagi 13 ta muzey yangi ish uslubida faoliyat yuritmoqda.

Olimlarimiz qatag'on siyosati va uning qurbonlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiryapti. Izlanishlar natijasida hali oqlanmagan davlat va jamoat arboblari, jadidlar faoliyatiga urg'u berilmoqda.

– Qatag'on qurbonlari deganda, odatda, ko'pchilik keng jamoatchilikka tanish bo'lgan 10–15 chog'li ziyolini ko'z oldiga keltiradi. Ma'lumki, o'sha mash'um yillarda 100 mingdan ziyod begunoh vatandoshimiz qatag'on qilingan. Ularning ortidan minglab ayollar yesir, bolalar yetim bo'lib qolgan. Oradan qariyb bir asr o'tgan bo'lsa-da,

SAVOB VA TAVOB

o'sha mudhish davrni chuqur iztirob bilan esga olamiz.

– Darhaqiqat, qatag'on haqida gap ketganda, hatto olim-u ijodkorlar ham siz aytgan taniqli shaxslardan nariga o'ta olmasdi. Chunki arxivlar yopiq edi, manbalar yetarli emasdi. Qolaversa, yaqin o'tmishga nisbatan hadik bilan qarardir. Qatag'on qilingan yurtdoshlarimizga bo'lgan munosabat uzil-kesil hal etilmagandi.

Davlatimiz rahbari mana shu mavhum kayfiyatga nuqta qo'ydi. U kishi qatag'on qurbonlari, xususan, jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, xalqqa yetkazishni oldimizga vazifa qilib belgiladi. Buning uchun nimayiki lozim bo'lsa, barcha sharoitni yaratib berdi. Soha mutaxassislari bilan muloqotlarda tariximizga oid bir parcha qog'oz topilsa, dunyoning narigi chetidan bo'lsa ham topib kelinglar, deya bizga nafaqat maxfiy arxivlarni, balki, dunyo eshiklarini ham ochib berdi. Ma'lum bo'ldiki, bu yo'nalishda jahon ilmiy doiralarda ham tadqiqotlar olib borilayotgan ekan. Ular bilan bog'landik, mustarak maqsad yo'lida hamkorlikni yo'lga qo'ydik.

Qisqa fursatda O'zbekiston jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan ikkita yirik xalqaro konferensiyaga mezbonlik qildi. Eng hayajonli, mehmonlarni ham quvontirgan, ham hayratga solgan jihat – Prezidentimizning har ikki anjuman ishtirokchilariga tabrik yo'llagani bo'ldi. Konferensiyalar natijasida dunyoning turli nuqtalaridan keltirilgan hujjatlar, fotosuratlar va boshqa manbalar muzeyimiz fondini boyitdi. Olimlarimizning qarashlari, farazlari o'zgardi. Asosiysi, yangi nomlarni topdik.

Jumladan, minglab shahidlar qatori shaxsi pinhon tutilgan Nosirxon to'ra Kamolxon to'ra o'g'li nomi tiklandi. Bu shaxs Turkiston Muxtoriyatining moliya vaziri bo'lgan, yettita tilni bilgan. 1931-yilda 92 nafar safdoshi bilan Toshkentga keltirilgan. Ularning ayrimlari otib tashlangan, ayrimlari uzoq yilga qamalgan. Bugungi kunda Nosirxon to'ra boshchiligidagi barcha safdoshlari oqlandi.

Ma'rifatparvarlar safida bo'lgan Sanjar Siddiq, A'zam Ayubni ham ko'pchilik bilmaydi. Ular o'z davrida zamondoshlariga nisbatan

katta bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lgan. Ijodiy faoliyati davomida Shimoliy muzda okeani, oq yiqilar, Amerikadagi hindular haqida maqolalar yozgan. Xalqni jahon bilan, jahondagi ahvol bilan tanishtirishga astoydil harakat qilgan.

Biz bilmagan yana qanchadan qancha shahidlarimiz bor. Ularning hammasiga "aksil-inqilobchi", "xalq dushmani" tamg'asi urilib, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 57-, 58-, 66-, 67-moddalari bilan hukm o'qilgan.

Bugungacha Davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, sud organlarining yordami bilan 1 ming 200 nafardan ziyod yurt ozodligi uchun jon fido qilgan insonni oqladik.

O'tgan yili "XX asr boshlarida Turkiston va milliy ziyolilar" nomli kitobim chop etildi. Bu kitobni nega yozdim? XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy murakkab vaziyat, milliy zulm va mustamlakachilik kayfiyatining eng yuqori cho'qqiga yetishi turkistonlik milliy ziyolilarning hurriyat eshigini qattiqroq taqillatishlariga, xalqning haq-huquqlarini balandroq tovushda talab etishlariga olib keldi. Ushbu kitob turkistonlik milliy ziyolilarning ana shunday murakkab jarayonlardagi sharaflari xizmatlarini yoritishni maqsad qilgan.

– Siz faqat rahbar emas, tarix fanlari doktori, professorsiz. Ilm olish mashaqqatini yaxshi bilasiz. Ammo XX asr boshida Germaniyaga o'qishga yuborilgan yigit-qizlar taqdiri boshqa zamonlardan ko'ra murakkab bo'lgan. Shunday emasmi?

– Prezidentimiz ular haqida to'xtalib, "O'tgan asrning 20-yillarida Germaniyada tahsil olgan turkistonlik talabalar qatag'on qilinmaganida, butun jamiyatni o'zgartirardi", deya bejiz armon bilan so'zlamagan.

1922-yilda Fayzulla Xo'jayev va Fitrat boshchiligidagi ziyolilar saralangan yigit-qizlarni Germaniyaga o'qishga yuborgan. Ularning ko'pi 15–18 yosh edi. Afsuski, ular qaytib kelgach, "josus", "germanofil", "xalq dushmani", "Vatan xoini", "zararkunonda" deb yo'q qilingan. Qararg, besh-olti yil xorijda yurib, omon qaytganlar o'z tuprog'ida qatl etilgan.

O'sha paytda turkistonlik yoshlar bilan bir safda Yaponiya imperatori Meydzi tomonidan

Germaniyaga jo'natilgan yaponlar ham tahsil olgan ekan. Ular yurtlariga qaytib kelishganida, poyonoz to'shab kutib olishgan, nazariyani amaliyotga tatbiq qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Natijasi esa o'zingizga ayon. Chunki XX asr boshlarida dunyoda ilm-fan cho'qqisiga chiqqan davlat Germaniya bo'lgan.

Yoshlardan Sattor Jabbor kimyo bo'yicha o'qigan. Lekin uyidan bir tiyin olmagan. Nemis tilini o'rganib, jurnalistika orqasidan topgan puliga o'zini eplagan. Qoyil qolasizmi? Bugunchi? Ayrim talabalar Toshkentda salgina qiynalsa, ota-onasining yuragini siqadi, ularni moddiy ta'minotchiga aylantirib olgan.

Masalan, Fayzulla Xo'jayev Germaniyada tahsil olayotgan yoshlarga yotoqxonaga olib bergan. Lekin Xayriniso Majidxonova ismli intiluvchan toliba o'z ixtiyori bilan nemis xonadoniga joylashadi. Sababi, shu yo'l bilan tilni chuqur o'zlashtirmoqchi bo'ladi. Shu qiz hatto Shillerning "Makr va muhabbat" spektaklida Luiza rolini Berlinda o'ynagan. Nemis tilida! Uning kiyimlari, anjomlari muzeyimizda turibdi.

Endi, yana yoshlarga qarab o'ylanib qoladi kishi. Mashhur she'rda yozilganiday, "O'shalar bizlarning bobolarmikan? Bizdan o'zlarini topolarmikan?"

– Muzey va ziyoratchilar o'rtasida tahliliy muloqotlar o'tkazib boriladimi?

– Albatta! Xalqdan uzilib qolgan muzey kimga xizmat qiladi? Qolaversa, aholi tomonidan ham qimmatli ma'lumotlar, eksponatlar topshiriladi bu yerga.

Bugun zamon yaxshilaniib, odamlarning ham dunyoqarashi o'zgardi. Odamlarning o'zi tashabbus bilan chiqib, qatag'on qurbonlari xotirasini tiklashga yordam bermoqda. "Shahidlar xotirasi" jamoat fondiga yuzlab xatlar keladi. Ba'zilarida ism-shariflar bo'ladi, ba'zilarida xira surat, ba'zilarida esa bir asrlilik buyum.

Sekin-asta jadidlarimizning oila a'zolari, avlodlari o'zini oshkor qilyapti. Bobolari, momolari haqida qimmatli va qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etyapti. Shu paytgacha qayerda edi ular? Shu yerda. Faqat ishonch yo'q edi. Endi bo'lsa, jadidlar merosini o'rganish siyosat darajasiga ko'tarildi.



Baxtiyor HASANOV,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari
xotirasi davlat muzeyi direktori,
"Shahidlar xotirasi" jamoat
fondi raisi

Afsuski, qatag'on qilinganlarga tegishli hujjat va boshqa qog'ozlar yoqib tashlangan, yo'q qilingan. O'zFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozma asarlar fondini bebaho xazina deb aytish mumkin. U yerdan jadid ota-bobolarimizning qo'lyozmalarini topdik. Izlanishlar va hamkorlik natijasida Elbekning e'lon qilingan asarlarini jamlab, uch jildda chiqarishga muvaffaq bo'ldik. Bu ishlar davom etyapti.

– Qatag'on qurbonlari mavzusi juda keng qamrovli. Savollar ko'p. Agar o'zingiz aytmoqchi bo'lgan zarur fikrlar bo'lsa, marhamat.

– Qatag'on qilinganlarning maqsadi, orzusi nima edi? Ular mustaqil Vatanni orzu qilgan edi. Mana, biz o'sha Vatanda yashayapmiz. O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida butun dunyoda tan olingan.

Agar bir asr oldin bir guruhi sanoqli yoshlar ne-ne mashaqqatlar bilan Germaniya, Ozarbayjon, Rossiyada o'qigan bo'lsa, bugun AQSHning o'zida "El-yurt umidi" stipendiatlari soni 500 nafardan oshibdi. Bu safga Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur va boshqa davlatlarda bilim olayotgan yigit-qizlarni qo'shing. Istiqlob bu shukrona degani, mushohada va mulohaza demak.

– Rahmat, domla, xalq manfaati yo'lidagi savobli ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilaymiz! Sog' bo'ling!

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



DUNYOGA TUTILGAN KO‘ZGU



Boshlanishi 1-sahifada.

2022-yilda boshlangan Ukraina mojarosi Yevropada 1945-yildan beri kuzatilgan eng katta harbiy to‘qnashuvga aylandi. Yaqin Sharqdagi Isroil – Hamas urushi mintaqada keng ko‘lamli gumanitar inqirozni keltirib chiqardi. Afrika qit‘asida joylashgan Sudandagi harbiy to‘qnashuv va Sahel mintaqasidagi terrorchilik faoliyati mintaqaviy beqarorlikni kuchaytirdi. Boshqa tomondan, Osiyoda Tayvan masalasi ortidan AQSH va Xitoy munosabatlari keskinlashib bormoqda. Bularning barchasi geosiyosiy muvozanatning buzilishi va davlatlar o‘rtasida ishonchsizlikning chuqurlashishiga olib kelmoqda.

Texnologik va ijtimoiy tengsizlik ham chandon oshib ketgan. Ilg‘or sun‘iy intellekt, biotexnologiya va “katta hajmli ma‘lumot” (Big Data) texnologiyalari asosan AQSH, Xitoy va Yevropa qo‘lida jamlangan. Afrika va Lotin Amerikasida esa raqamli infratuzilma rivojlanishga muhtoj. Internetdan foydalani sh darajasi Shimoliy Yevropa va Yaponiyada 95 foizdan yuqori, ayrim Afrixa mamlakatlarida esa 30 foizdan ham past. Muxtasar aytganda, texnologik taraqqiyot insoniyatni hozircha tenglashtirmagan, aksincha “texnologik elita” va “chetda qolgan omma” o‘rtasidagi masofani yiroqlashtirganini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib borayotgani afkor ommada jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillardagi pandemiya, urush va sanksiyalar dunyo miqyosida inflyatsiyaning oshib ketishiga sabab bo‘lgan. Kam foizli kreditlar kamaygani tufayli qator rivojlanayotgan davlatlar qarzni qaytarishda qiyinalmoqda. Qolaversa, jahon boyligining qariyb yarmini 1 foiz aholi nazorat qilgani holda, milliardlab odamlar qashshoqlik chegarasida yashayotgani ham ayni haqiqat. BMT ma‘lumotlarida aytilishicha, 2024-yili 360 milliondan ortiq odam ozig‘ovqat muammosiga duch kelgan. Suriya, Yaman, Afg‘oniston, G‘azo va Sudan bu borada eng og‘ir nuqtalar bo‘lib qolmoqda. 2023-yili 114 milliondan ortiq inson qochqin yoki ko‘chgan shaxsga aylangani esa tarixiy rekordni yangilagan.

Iqtisodiy inqirozlar va gumanitar ofatlar shu tariqa butun dunyo xavfsizligiga tahdid solmoqda. Natijada AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa va mintaqaviy bloklardan tashkil topgan ko‘p qutbli dunyo tizimi vujudga kelmoqda. Turkiyaning NATO va SHHT o‘rtasidagi pozitsiyasi, Saudiya – Eron yarashuvi, BRIKSning kengayishi – global muvozanatda “yangi geosiyosiy arxitektura” paydo bo‘layotganidan darak beradi. Bu holatning xavotirli jihati davlatlar o‘rtasidagi raqobat sun‘iy intellektidan tortib yadroviy qurollargacha bo‘lgan sohalarida kuchayib borayotganida ko‘rinadi.

O‘ZBEKISTON BUNI ISTAMAYDI

Yangi O‘zbekiston yetakchisi jahon hamjamiyatini mana shunday noxush xatti-harakatlardan tiyilishga chaqirar ekan, BMT va uning asosiy organi – Xavfsizlik Kengashining samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etishni ta’kidladi. Bu so‘z zamidrida dunyodagi qaynoq mojarolar jarayonida BMTning “muloqot maydoni” sifatidagi ahamiyatini yuksaltirish va tuzilmaning insoniyat uchun global muros platformasi bo‘lib qolishini ta’minlash istagi mavjud.

Davlatimiz rahbari Xavfsizlik Kengashini isloh qilish zaruratiga bejiz to‘xtalmadi. BMT Xavfsizlik Kengashi 1945-yili AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya va Xitoy ishtirokida tuzilgan. Ayni vaqtda unda 5 nafar doimiy a‘zo va 10 nafar vaqtinchalik a‘zo mavjud. Biroq bugunga kelib Kengash faoliyatida qator kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Afrika, Lotin Amerikasi va Janubiy Osiyo kabi mintaqalardagi yirik davlatlar, masalan, Hindiston, Braziliya va JAR doimiy a‘zolikdan chetda qolib, mintaqaviy nomutanosiblik yuzaga kelgan. Doimiy a‘zolardan birining veto huquqi global xavfsizlik masalalarini hal qilishga muntazam to‘siq bo‘lishi odatga aylangan. Bu esa aksar davlatlarning, yetakchilar va siyosatchilarning haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Hatto, tashkilotning global tinchlikni asrash borasidagi o‘rni va roli borasida shubha bildiruvchilar ko‘zga tashlanmoqda.

Xavfsizlik Kengashining isloh qilinishi va kengaytirilishi – barcha davlatlar manfaatlarini teng himoya qilish, zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish uchun o‘ta muhim zarurat. Va bu borada oqilona yechimga kelinishi shart. XXI asrning global muammolari–terrorizm, kiber tahdidlar, iqlim inqirozi va geosiyosiy nizolar Xavfsizlik Kengashi islohotini chindan



taqozo etadi. Bu jarayonda rivojlanayotgan mamlakatlarning ovozi va manfaatlari inobatga olinmasa, vaziyatning bundan-da og‘ir tus olishi, xalqaro tashkilotlarning samaradorligi yanada pasayishi mumkin. O‘zbekiston ham, boshqalar ham buni istamaydi.

SIYOSIY IRODA IFODASI

O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida BMT bosh qarorgohida O‘zbekiston tashabbusi bilan o‘tkazilishi rejalashtirilgan bolalar saratoni va boshqa og‘ir kasalliklarga qarshi kurashga oid yuqori darajadagi tadbiriga barcha xorijiy hamkorlarni taklif etdi. Bu esa O‘zbekiston Prezidentining nufuzli xalqaro anjumanlar va mashvaratlarda kuzatiladigan fenomenal bir xislati – bashariyat saodatiga daxldor barcha muammolarga jiddiy yondashish, milliy va umuminsoniy mushkulotlarga yechim topish, jaholatga qarshi ma‘rifat g‘oyasi asosida, inson qadrini ulug‘lovchi ezgu tashabbuslarni ilgari surish fazilatini yana bir bor namoyon qildi.

Bashariyat befarq bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yana bir jihat – gender siyosati ekanini ta’kidlagan Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy-siyosiy hayot va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning rolini muntazam mustahkamlash borasidagi qat’iy niyatini bayon etib, Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish borasidagi tashabbusni bildirdi.

Bizningcha, Prezident nutqining xalqaro darajadagi kulminatsiyasi sifatida e‘tirof etish mumkin bo‘lgan yana bir nuqtasi – “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifidir. “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi oliyanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamiz”, deya o‘z taklifini izohlagan O‘zbekiston Prezidentining bu tashabbusi



amalg ohsa, nafaqat yurtimizdan, balki jahonning turli mamlakatlaridan minglab-millionlab yoshlarni ezgu g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar, tashabbus va harakatlarga jalb etish mumkin bo‘ladi. Bu tashabbus – nafaqat o‘z millatdoshi, yurtdoshi, dindoshiga nisbatan, balki irqi va e‘tiqodidan qat’i nazar, bashariyatning barcha vakillariga yaxshilik sog‘ingan odamning tashabbusidir.

TEXNOLOGIYA INSON UCHUN

O‘zbekiston Prezidenti davlatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun‘iy intellektidan foydalanishda tengsizlikka barham berish, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida insoniyatga sun‘iy intellekt tufha etayotgan ijobiy yechimlarni beg‘araz almashishda xalqaro hamkorlik mexanizmini yaratish g‘oyasini o‘rtaga tashladi. Bu tashabbusdan ko‘zlangan maqsad – sun‘iy intellekt va barcha zamonaviy texnologiyalar odamlarga xizmat qilishi, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishi, hayotini yengillashtirishi zarurligidir. Demak, sun‘iy intellekt iqtisodiy raqobat quroli emas, balki insoniyat taraqqiyoti va inson qadrini yuksaltirish vositasi sifatida ko‘rilishi lozim.

Prezident taklif etayotgan mexanizm tibbiyot sohasi uchun katta imkoniyat yaratadi. Chunki sun‘iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash, tibbiy xizmatlarni arzonlashtirish va ommalashtirish, chekka hududlarda ham sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini yaratadi, bir so‘z bilan aytganda, dard qarshisida ojiz qolayotgan millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi.

Sun‘iy intellektidan to‘g‘ri va samarali foydalanilsa, ta’lim sohasida ham inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Sun‘iy intellekt ko‘magida har bir o‘quvchining individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish, chekka hududdagi yur uchun ham zamonaviy bilimlardan, talabalar va o‘qituvchilar uchun global bilim platformalaridan bahramand bo‘lish, ilm-ma‘rifat sohasida tenglikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

Sun‘iy intellekt iqtisodiyot va fanga, shu jumladan, madaniyatga ham katta hissa qo‘shishi allaqachon isbotlangan. Milliy merosni raqamlashtirish va asrash, turli xalqlarning madaniyatini dunyo miqyosida targ‘ib etish, tez va aniq tarjima orqali madaniy muloqotning kengayish imkoni aynan sun‘iy intellekt tufayli tez va samarali ro‘yobga chiqadi, tamaddunlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Prezidentining bu boradagi tashabbusi raqamli texnologiyalar mono-poliyasiga barham berib, davlatlar o‘rtasida adolatli sheriklikning rivojlanishiga olib keladi. Shunday ekan, sun‘iy intellektidan umumbashariy manfaatlar yo‘lida foydalanish taklifi dunyodagi barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyatga ega. Nafaqat Yangi O‘zbekiston siyosati, balki butun insoniyat hayotida insonparvar va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bu tashabbus jahon hamjamiyatiga “texnologiya inson uchun” degan ezgu g‘oyani taqdim etdi.

JAHON HAMJAMIYATINING FAOL ISHTIROKCHISI

Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridagi nutqida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy singari buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy va ilmiy meros taqdimotini Birlashgan Millatlar Tashkilotida o‘tkazish niyatini bildirdi. Bu tashabbus o‘zbek xalqining o‘zligini anglatish, ma’naviy merosini jahonga tanitish, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish va global hamjihatlikka hissa qo‘shish maqsadlarini o‘zida mujassam etadi.

Tashkil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Prezidentining BMT minbaridagi barcha chiqishlari mamlakatning ichki va tashqi siyosatida o‘z aksini topgani, ilgari surilgan barcha tashabbus va rejalar hayotga izchil tatbiq etilganini ko‘ramiz. Masalan, muhtaram Prezidentimizning bundan sakkiz yil avval BMT minbarida ilgari surgan “Markaziy Osiyoni tinchlik va hamkorlik makoniga aylantirish” g‘oyasi bugun to‘la amalga oshganiga hammamiz guvohmiz. Qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralarning ochilishi, savdo-sotiq va transport hajmining 5 barobargacha o‘sgani, qardoshlar bilan qo‘shma investitsiya jamg‘armalari tashkil etilgani – bularning barchasi yurt rahbari aytgan so‘zlarning amaliy isbotidir.

Mamlakatimiz yetakchisi yuksak minbarlarda bildirayotgan g‘oya va tashabbuslar O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yuksaltirib, uni global muammolar yechimini izlashda jahon hamjamiyatining faol ishtirokchisiga aylantirmoqda.

Abdulhamid MUXTOROV,
“ZIYO” media-markazi
rahbari

Boshlanishi 1-sahifada.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) jadidlik harakatining yetakchi namoyondalaridan biri sifatida xalqni zamonaviy ilm-fanga, ma‘rifatga chorlagan, taraqqiyotning kaliti bilimda deb hisoblagan. Uning sahna asarlari orqali yuksak milliy g‘oyalar keng jamoatchilik ongiga singdi, qalbarga nur bag‘ishladi.

Behbudiy o‘z asarlari, ilg‘or pedagogik qarashlari va faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi bilan jamiyatda yangi uyg‘onish davrini boshlab berdi. Ayni shu ma’noda, uning fikrlari va faoliyati nainki mintaqada, balki butun musulmon Sharqida taraqqiyotga yetaklovchi ruhiy to‘lqin uyg‘otgani barchamizga yaxshi ma’lum.

BEHBUDIY VA SULTON QOBUS

Ana shu ma‘rifatparvarlik g‘oyasi boshqa diyorlarda ham o‘z ifodasini topgani sir emas. O‘mon Sultonligida Sulton Qobus bin Said (1940–2020) aynan shunday insonparvar va ma‘rifatparvar yetakchi sifatida ehtirom bilan xotirlanadi. Uning faoliyati, xalqni bilimga, zamonaviylikka chorlashga qaratilgan harakatlari mintqa taraqqiyotida katta o‘rin tutgan, keng qamrovli islohotlari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholangan. Uning boshqaruvi davrida mamlakatda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va siyosiy sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning ta’lim olishi va mehnat bozorida faol qatnashishini rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Sulton Qobus rahbarligida O‘mon an’analarga sodiq qolgan holda zamonaviylik sari intilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Uning hukmronlik davri tarix sahifalarida “O‘mon uyg‘onishi” deb nom olgani bejiz emas, albatta.

Qizig‘i shundaki, har ikki buyuk shaxs – turli davr, turli hudud va siyosiy sharoitda yashab faoliyat olib borgan bo‘lsa-da, ularni yagona nuqta birlashtiradi: bu ma‘rifat orqali xalqni uyg‘otish, millatni taraqqiyot sari yetaklash g‘oyasidir. Ularning hayot yo‘li, faoliyati va ruhiy dunyosi shunchalik mushtaraki, go‘yo ular bir zamonada, bir safda yurgan, bir millat, bir kelajak uchun yelkadosh bo‘lgandek taassurot uyg‘otadi.

Joriy yilning 26-sentyabr kuni O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Madaniy o‘lchov va O‘zbekiston – O‘mon muloqoti: islohotlar yo‘li” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjuman Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi hamda O‘mon Sultonligining marhum rahbari Sulton Qobusning ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlariga bag‘ishlandi. Unda madaniy aloqalar, ta’lim tizimida o‘zaro tajriba almashinuv hamda ma’naviy merosni saqlash va targ‘ib etish masalalari ham muhokama etildi.

Ma’ruzachilar tomonidan Akademiyada Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida bir qator muhim ishlar amalga oshirilayotgani, “Behbudiy” stipendiyasi joriy qilingani, jadidlar merosiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy darslar muntazam yo‘lga qo‘yilgani, Behbudiy asarlarini o‘qish va tadqiq qilishga bag‘ishlangan maxsus davra suhbatlari tashkil etilayotganiga urg‘u berildi. Ezgu tashabbusning mantiqiy davomi O‘zbekistonning mintaqiy boshida ilmiy ushbu anjuman O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi va O‘mon Sultonligining mamlakatimizdagi elchixonasi hamkorligida o‘tkazilayotgani ta’kidlandi.

Ma’rifiy yig‘inda O‘monning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Vaf o bint Jabr Nosir al-Busaidiy o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi. Shuningdek, “Baytul qiroa saqqiyy” kitobxonlar jamiyati vakillari – Hamda ash-Shamsiy va Maryam al-Vahaybiy, Texnik talablar departamenti direktori, ekologik menejment va iqtisodiyot bo‘yicha fan doktori Jihod bint Jabr al-Busaidiy, O‘mon Xotin-qizlar assotsiatsiyasining xazinadori, boshqaruv kengashi a‘zosi va pudrat-qurilish sohasidagi yirik tadbirkor Xanan bint Muhammad az-Zajaliy, bankir, buxgalteriya va moliyaviy menejment bo‘yicha magistr Kamila bint Muhammad az-Zajaliy, biznes boshqaruvi bo‘yicha o‘qituvchi hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi mutaxassislar – Tahira bint Fida al-Lavatiya va Intisar Abu al-Rab, ta’lim sohasi mutaxassisi va kasbiy

rivojlanishga ko‘maklashuvchi mutaxassis Naxla bint Sulaymon al-Anqudiy so‘z olib, o‘z sohalarida erishilgan yutuqlar va bu borada O‘zbekiston tajribasidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlariga to‘xtalib o‘tdi.

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi Ahmad Musa va taniqli sharqshunos olim Baxtiyor Ibragimov boshchiligidagi professor-o‘qituvchilar, yetakchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va talaba-yoshlardan iborat keng jamoa yig‘ilishning ilmiy va ma’naviy jihatdan yuksak saviyada o‘tishini ta’minlashda faol ishtirok etdi.

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, tarix fanlari doktori Saidakbar A‘zamxo‘jayev ikki davlat o‘rtasidagi ilmiy-ma’naviy

hamkorlikka xizmat qiluvchi mazkur tadbir haqida so‘z yuritir ekan, “Markaziy Osiyo davlatlari va arab diyorlaridagi yangiliklar, islohotlarni o‘zaro o‘rganish va birgalikda ilmiy tadqiqotlar qilish uchun bu kabi anjumanlar o‘tkazilishi bugun nihoyatda foydali va dolzarb deb hisoblayman. Bizning jadid bobolar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari qoldirgan boy ilmiy meros nafaqat jonajon Vatanimiz olimlari, balki dunyo afkor ommasining diqqat-e’tiborida ekani bizni benihoya quvontirdi”, deya ta’kidladi. Shuningdek, u o‘z ma’ruzasida jadidlar yashagan davrga oid fotosuratlar va arxiv materiallar nuxsalaridan foydalangan holda, o‘sha davrdagi ta’lim sharoitlari, Samarqanddagi eski va yangi usuldagi maktablar o‘rtasidagi farq, shuningdek, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy va Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan tashkil etilgan usuli jadid maktablari haqida fikr yuritib, Behbudiyning yoshlarni ta’lim uchun xorijga yuborishga bo‘lgan intilishi xususida to‘xtalib o‘tdi.

Tadbir davomida nafaqat tarixiy va madaniy o‘xshashliklar, balki ikki mamlakatning taraqqiyot strategiyasidagi hamohang nuqtalar ham muhokama qilindi. Ishtirokchilar fikricha, bunday anjumanlar har ikki mamlakatda olib borilayotgan ma’rifiy islohotlar, inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim modellari tatbiq etish kabi yo‘nalishlarda o‘zaro ilmiy-amaliy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konferensiya talabalar uchun ham faol muloqot maydoni sifatida xizmat qildi. Unda ilgari surilgan zamonaviy g‘oya va tashabbuslar ular uchun yangi bilim manbai, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarga ruhlantiruvchi davra vazifasini o‘tadi. Talabalar xalqaro ilmiy maydondagi jarayonlarni jonli kuzatish va ijtimoiy-siyosiy muloqot madaniyatiga yanada yaqin borish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Anjuman doirasida “Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy merosining o‘ziga xos jihatlari”, “Sulton Qobus bin Said – zamonaviy O‘monning islohotchi hukmdori”, “Qobus bin Said islohotlari: yopiqlikdan zamonaviy davlat sari”, “Jadidlar va Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘rifatparvarlik va ilm-fan sohasidagi faoliyati”, “O‘mon – an’ana va modernizatsiya chorrahasida: Sulton Qobus merosi”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy va Sulton Qobusning ma‘rifatparvarlik qarashlaridagi o‘xshash jihatlar” hamda “Sulton Qobus islohotlarining jadidlar g‘oyalargacha uyg‘unligi” kabi tahliliy maqolalar o‘qib eshittirildi. Yirik tarixiy shaxsiyat – Mahmudxo‘ja Behbudiy va Sulton Qobus bin Saidning hayot yo‘li, ma‘rifatparvarlik g‘oyalari va amaliy islohotlari orqali yuksak qadriyat – Vatanga xizmat qilish, millat taraqqiyoti uchun o‘zini bag‘ishlash tamoyili yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi.

Shuningdek, tadbir doirasida O‘mon Sultonligining O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan tashkil etilgan tasviriy san’at ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘monning qadimiy madaniyati, zamonaviy taraqqiyoti va milliy o‘zligini ifodalovchi turli yo‘nalishdagi asarlar namoyish etildi. Ekspozitsiyada tarixiy portretlar va qorishiq uslubdagi lavhalar, xalq an’analarga oid milliy liboslar, mehnat va hayot sahnalari tasvirlangan kompozitsiyalar, zamonaviy abstrakt va kalligrafik asarlar, shuningdek, O‘mon san’atiga xos bezak buyumlari namunalari jamoatchilik e’tiboriga taqdim etildi.

Shahriyor SHAVKAT



BIZ VATANGA KERAK, BIZLARGA – VATAN!

Boshlanishi 1-sahifada.

Ishqing dil dashtini gulxona qildi,
gul bo'lib kiray qalb – gulboqqinangga.

Kelar yo'llaringga mehrim poyandoz,
ko'z intizor yo'li yiroqqinangga.

Jilmayib kutib ol telba rashkimni,
jonim fido noz-u firoqqinangga.

Ko'zlaring yashirma, so'z so'ray undan,
Ko'zim javob bersin so'roqqinangga.

Vodiy gulin taqay minorlaringga,
yurak rasmin chizay dudoqqinangga.

Quvonchdan kulsam ham, g'amga to'lsam ham,
Vatanim, deb boray quchoqqinangga.

Istagim – pichirlab aytсам eng so'nggi,
eng so'nggi so'zim ham quloqqinangga...

QO'QON SHAMOLI

Bu tabiat qarg'ishi emas,
shamol bunga kelgan ataylab.
Aytgan: nimjon bo'lar bolalar,
o'stirsangiz ortiq avaylab.

Mashaqqatdan qochmadim hargiz,
entiktirar kunlar visoli.
Qayda bo'lmay quloqlarimga
hayqiradi Qo'qon shamoli:

“Bir gul desang bunda o'zingni,
kuchimga dosh berolsang, gulsan.
Ko'zlaringga qum to'lsa hamki,
sayrayolsang asl bulbulsan”.

Balki uni bilmaydi ko'plar,
U tinmaydi to'r't fasla ham.
Bunda yashar kimki do'ppisin
tuta bilsa boshida mahkam!

ONAMGA

Yig'iga o'xshagan tabassum bilan
Yana qoshingizga qaytmoqdadirman.
Bu yerda hech kimsa parvo qilmagan
Dil rozimni sizga aytmoqdadirman.

Men osmondan yerga tushib qolganman,
Do'stlar xiyonati boshimni egib.
Muhabbat, visoldan bezib qolganman,
Hatto baxtiyorlik jonimga tegib.

She'rsiz – dardsiz kunlar bisyor bunchalar,
Shodumon kunlarim ortiq ko'paydi.
Ilhom menga sernoz malikalardek
“Fuqaro, fuqaro, fu, qaro!” deydi.

Qadahga egilgan boshni ko'tarsam,
Yuragim xirqirab so'z aytdi og'ir:
Shoirmas so'zni ming ko'ylarga solgan,
She'rni deb ming ko'yga tushganlar shoir!

Asablar qaqshaydi dunyoga boqsam –
Hanuz to'qnash kelar yetimlar, tullar.
Urush o'chog'ining nafsı yomondir –
Unga o'tin bo'lar bolalar, gullar.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri:

MILLAT TAQDIRIGA DAXLDORLIK

Xuddi kechagidek esimda, A'zamjonning she'rlarini
“Yoshlik” jurnaliga Anvar Obidjon olib kelgandi.
Favqulodda teran, nihoyatda dadil, samimiy, quyma
misralarni o'qiyotib, uning muallifi talaba ekanligiga
ishongim kelmagan. Ular havaskor talabaning
mashqlariga umuman o'xshamasdi. Tengdoshlaridan
farqli mukammallik, til va so'zga, adabiyotga mas'uliyat,
millat taqdiriga daxldorlik yaqqol sezilib turardi.
She'rlarida yulqin, isyon, o'ktamlik bor edi. Farg'ona
o'rikzorlarini eslatuvchi ajib soflik, tiniqlik ufurib turardi.
Odatiy obrazlardan xoli misralar, ohori to'kilmagan
tashbehtar, tiniq tuyg'ular, dadil fikrlar, zamon va abadiyat
qonunlari uyg'unlashgan to'fondek taassurot qoldirardi.
Shuning uchun ham A'zamjon talabalik paytidayoq tanildi,
Ozod akadek ustozlarning e'tiboriga tushdi. O'shanda
“Yoshlik” jurnalida bosilgan turkumi she'riyatning yillik

muhokamasida juda katta baho olgandi.

Erkparvarlik, millatparvarlik, milliy g'urur A'zamjonning
muharrirlik faoliyatida, uning milliy adabiyot manfaatini
hamma narsadan ustun qo'yg'anligida juda yaqqol
ko'rinadi. U mustabid tuzum davrida Cho'lponning
“Bahorni sog'indim” kitobiga, “Boburnoma”ga, “Sabotul-
ojizin”ga nom qozonish uchun emas, balki tarixga
muhabbatli, milliy adabiyotning taraqqiyoti, yosh avlod
kelajagi uchun jonkuyarligi, e'tiqodi butunligi tufayli
muharrirlik qilgan. Bu kitoblari o'z vaqtida qizg'in shov-
shuvga sabab bo'lgandi. Ayniqsa, “Bahorni sog'indim”,
ayniqsa, “Sabotul-ujizin”. Salkam yarim asrlik sukunatning
istibdodini yengib, millatning tafakkuri va milliy g'ururini
uyg'otib, zehnni charxlaydigan bu kitoblarni nashr etish
haqiqiy jasorat edi.

2010-yil

Saodat, sadoqat – gulxandir,
Biz mangu yonaylik gulxanda
Uy – Vatan, kuy – Vatan, o'y – Vatan
Orzuga yetaylik Vatanda...

ILTIJO

Uh desam, kiprigi, ko'zi namiqqan,
Ketsam, ko'zlarida yoshlari jiqqa,
Men yashnagan sayin rangi siniqqan –
Sevarim, sog' o'l.

Boshimni egmagan menga bosh egib,
Puch urug'-la qolgan sara don ekib,
Ro'shnolik ko'lmagan oshnoga tegib –
Sevarim, sog' o'l.

O'zing bilgan, balki bilmagaydirsan,
Izn etmasam, hatto kulmagaydirsan.
Demak, men aytmasam o'lmagaydirsan –
Sevarim, sog' o'l...

Bu yorug' yuzdan ko'z olma, nurga burkaydur seni,
G'ofil o'tsang ko'r-u kardek shu'la urgaydur seni.

Bu raso qadni yo'qotma, izlarini ko'zga surt,
Ne balo kelsa, omanson – sochi chirmaydur seni.

Do'sti to'g'ri yo'ldan ozgan kimsa zulmat ichradir,
Jahd etib chiqmas esang, ul oy ko'rmaydur seni.

Bunchalar sustlashma, o't bo'l, bir jang emish oshliqlik,
Sachragan uchqun yanglig' qonlar chaqirgaydur seni.

Oy nur sochar quyoshning yet deb visolig'a pok,
Tundan oq chiqmas esang, tonglar kechirmaydur seni.

KUZDA KULGAN CHECHAK

Kun ko'rmay kunim ko'rdim:
Tez kech kirdi, tongdan dil xufton.
O'sib qariyapman,
Yengilish – yengilish.

Har tun hayot marhum,
Doim tirik o'lim:
Hayot menga do'stmas, ha, yot.
Qalam tutqazar alam,
Muzday hovur purkar saraton.
Oloho, panohingga ol-l, oh.
Nomingdan yorishdi yodim,
Endi gullar qishda ham gullar.
O'lib-tirilmasman sira,
O'lib, tiriladigan dunyoga.
Yarash yo'q, kurashga yarash bor.

IQROR

Kuy bo'l qo'shig'imga, momoguldirak,
Buncha gursillama, og'ir bo'l, yurak.
Qiynalдим, sirimni ochishim kerak –
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

Har kun nasibasi haqorat, qarg'ish,
Bahori bir lahza, uzun umri qish.
Bir istagi qolish, ming ahdi ketish –
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

Aldamchilik, yolg'on mendan naridir:
U mening jonimdir, malak, paridir.
Birov deb yashnadi, meni deb qariydir –
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

O'tda kuydi, suvda cho'kdi yil, kuni,
Menga nasib etdi oydin bir tuni.
Endi o'lgim kelar jim quchib uni –
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

Kech kuzda anglabman ko'klam ketganini,
Yuksakdan qulagan barglar qarg'anar.
Nahotki shu – manglayimga bitgani –
Qaldirg'ochlarim yo'q, nuqul qarg'alar.

O'z holimga qo'ying, hayqiray bir bor
Bosib daydi shamollarning hushtagini:
“Ey, bahor,
hey, bahor,
oh, bahor,
Ketma, mening yuragimda qishlagin”.

Boshlanishi 1-sahifada.

Ma'lumki, bahor kelishidan avval qaldirg'ochlar – bahor darakchilari paydo bo'ladi. Istiqlof arafasida milliy tilning rasmiy hujjatlarida yuksak bir maqomga ko'tarilgani yurtning ozod bahoridan, mustaqilligidan darak bergan shunday bir bebaho mujda edi, degim keladi.

O'tgan yillar mobaynida o'zbek adabiy tili va uning qo'llanishi mamlakat bo'ylab keng quलोch yoydi. Ishdagi hujjatlar, ma'muriy, rasmiy, idoraviy ish qog'ozlarining davlat tilida taqdim etilishi, shunga oid mezonlarning ishlab chiqilgani va boshqa omillar tilimizni ilm-fan tiliga yaqinlashtirdi.

Bugun dunyo olmon yoki yaponlarga havas qiladi. Ularning ilm-fandagi yutuqlarini olqishlaydi. Buning bosh omili bevosita tafakkurga, tafakkur esa milliy tilga borib bog'lanadi. Bu taraqqiyotning sabablari milliy tafakkurga taalluqli ekanini olimlar allaqachon isbotlashdi ham. Demak, o'zbek tili bugun o'zbekona tafakkur tili bo'lishi lozim.

Tilga e'tiborli inson shu elning dard-u g'amiga, kelajagiga, ma'naviyatiga befarq bo'la olmaydi. Aslida, ziyoli inson o'zining yozma va og'zaki nutqi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi lozim. Yozma nutq husnixatning o'zigina emas. Yozma nutqning asosiy belgilaridan biri – savodxonlik tushunchasi orfografiya qoidalarga rioya qilgan holda, har bir so'zni to'g'ri yozishdan tortib, zarur so'zni tanlash, gapni tilning barcha qoidalarga asosan tuzish, nutqni yozilayotgan matn tabiatiga moslash kabi juda ko'p masalalarni qamrab oladi.

O'ZBEK TILI

o'zbekona tafakkur tili bo'lsin

Bisitoda barchaga tushunarli so'zlar turgani holda, boshqalarga qiyinchilik tug'diradigan so'zlarni noo'rin qo'llash oqibatida g'alizlik yuzaga keladi. Natijada o'quvchi yozilgan matnni tushunishga qiynaladi.

Fikr ifodasida mantiq ham muhim. Albatta, har kim ham gapirish huquqiga ega, biroq unda ma'no, fikr, mazmun bo'lmasa, bunday nutqqa “vaysamoq” fe'li mos tushadi. Sog'-salomat bo'lish faqat tana sifati emas, u ma'naviyat, ma'rifat va mandaniyatga ham, ayni damda, nutqga ham taalluqlidir. Bu sohalarga maraz yuqsa, uni sog'aytirish qiyin. O'zbekona badiiy tafakkurning cho'qqisi sanalmish hazrat Alisher Navoiy aytadiki:

“Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz. Kimning miyasida illat bo'lsa, so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi yoqimli va xatosiz bo'ladi. So'zida parishonlik – o'zida pushaymonlik”.

Buyuk sarkardalar qilich bilan zabt eta olmagan o'lkalarni notiqar ta'sirli nutqlari bilan

zabt etgani haqida tarixda misollar bisyor. Ko'plab mashhur notiqar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlagani, odamlar ularga ergashib, jamiyat hayotida bunyodkorlik ruhi ustuvor bo'lgani ham tarixiy haqiqat. Aslida, bunday nodir qobiliyat – ishonch bilan so'zlab, odamlarning qalbidan joy olish va ularga ilhom baxsh etish hammaga nasib etavermaydi.

Hozirgi kunda turli xorij tillari bo'yicha yuksak bilim va malakaga ega yoshlar soni ortib bormoqda. Dunyoning yetakchi universitetlarida o'qish, qaysi bir mamlakatda tijorat bilan mashg'ul bo'lish, sayr-u sayohat qilish – bularning barchasini ma'qullagan holda, bir gap aytmoqni istayman. Xorij tillarini ona tilidek biladigan yoshlar dunyoga o'z millatining shon-shuhrati va muazzam tarixini, allomalari merosini, ko'zal xulq-odobini targ'ib-tashviq qilmog'i lozim.

Xorij tillarini yaxshi o'rgangan odamda o'z ona tilining ifoda imkoniyatlari, lug'at boyligi, balog'at va fasohati kabi bir qancha qirralarini



loy otadigan kishi), “borlama qilish” (“yo'qlama qilish” birikmasining muqobili), “birlama” (g'o'zani yagona qilish), “chakar” (quduqdan suv tortib oladigan chelak-moslama), “qalqi” (qarmoqning suv yuzasidagi popugi, bu yengil buyum suvda qalqib turgani uchun ham “qalqi” deb ataladi), “kuchala tosh” (batareya), “qo'nimdor” (propiska) singari o'nlab so'zlar bugungi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanishi mumkin bo'lsa kerak, deb o'ylab yuraman.

Bizda xalq og'zaki ijodi namunalari yuz jildida nashr bo'lmoqda. Bunday boylik dunyoning qaysi millatida bor? Bugun o'zbek tili dunyoning ko'pgina mashhur universitetlarida o'rganilayotgani naqadar quvonchli. Bu tilning badiiy ifoda imkoniyatlarini Alisher Navoiy o'z she'riy devonlari, “Xamsa”si bilan isbotlab ko'yg'an. Biz buni anglashimiz shart.

O'zbek tiliga davlat miqyosida yuksak e'tibor berilayotgan bir pallada uning muammolari shu holicha qolishi mumkin emas. Ma'lumki, o'quv muassasalarida ona tilimiz o'qitiladi. Bu o'qitish jarayoni oliy o'quv yurtlarining nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ham davom etishi zarur. Chunki har bir mutaxassis o'z sohasining haqiqiy bilimdoni bo'lishi bilan birga, o'z ona tilida fikrini aniq bayon eta olishi shart.

Olmon adibi Herman Hesse: “O'z tilini yaxshi bilmaydigan, sevib-ardoqlamaydigan, uni himoya qilmaydigan xalqning shoiriman deb ko'krak kerishdan or qiladi kishi”, degan ekan. Tilga doir bu muhim fikrni nafaqat ijod ahliga, balki har bir fuqaroga nisbat berish o'rinli bo'ladi.

Bahodir NURMUHAMMAD



OYDINLAR

Mashhur orif va muhaddis Sufyon Savriy “Ko’ngildan kibr zangini ketkazishdan ko’ra tog’ni igna bilan quduqqa aylantirish osonroq”, degan ekan. Mavlonο Jaloliddin Rumiya ko’ra esa, takabburlikning eng tuban ko’rinishi ko’pincha ilm ahli orasida uchraydi, binobarin, kibr-u havo bois ilohiy dargohdan haydalgan Iblis ham dastavval farishtalarga ustozlik qilgan. Alhol, ilmiga shoista amal qilgan xoksor olimlarning maqomi ham, martabasi ham ko’ngil atalmish ulug’ dargohning to’rida bo’ladi.

Kibrini yengib, nafsi ustidan hokim bo’lganlar har kuni ham uchrayvermaydi. Shukrlarkim, kamina xodimingiz ana shunday darveshtabiati, o’zini tuproqdek xoksor tutgan, aslida, maqomi azim tog’lardek baland munavvar bir zotning suhbatı, tarbiyatidan bahramand bo’lganman. O’zbek tasavvufshunosligi hamda mumtoz tarjimashunoslik maktabi asoschisi, atοqli adabiyotshunos Najmiddin Komilov (1937–2012) ana shunday naziri yo’q kishi edi.

ILK SABOQ

Talabalik kezlarim o’zim ham takabburlik xastaligiga muhtalo bo’lganim haqrost. Tasavvuf va ırfonga oid eng mo’tabar manbalarni mustaqil ravishda o’qiganim sababli, ro’zg’or tashvishida xayoli parishon ustozlardan o’zimni bir bosh baland hisoblab yurardim. Bir kuni qıblagohim qo’limga “Tafakkur” jurnalining to’rtta sonini tutqazib mutolaaga da’vat etdilar:

– O’qi! Tasavvuf haqida to’rt salmoqli maqola chiqqan. Muallifini yaxshi taniyman. Juda ulug’ inson.

Jurnalni olib, istar-istamas o’qimoqqa tutindim. Najmiddin Komilov qalamiga mansub maqolalar ekan. O’sha vaqtlarda mahalliy matbuotda tasavvuf va ırfon haqida asosan oldi-qochdi gaplar, mahobat-u mubolag’adan iborat tizmalarni o’qiyverib, olimlardan hafsalam pir bo’lgan edi. Ammo “Tafakkur”dagi maqolalar birinchi satrdanoq meni butkul hushimni o’g’irlab oldi. Muallif dalil o’laroq keltirgan manbalarning deyarli barchasi menga tanish edi. Ayrimlarini hatto betma-bet yodlab olgan edim. Ammo o’qigan boshqa-yu, uqqan va ayniqsa, boshqalarga to’g’ri uqtirgan boshqa ekan. Manbalarda shunchaki oddiy gap deb o’qib o’tganlarimdan Najmiddin Komilov shunchalar chuqur, shunchalar cho’ng xulosalar chiqargan ediki, har bir jumla va ibora olam-olam ma’no tashirdi.

Alqissa, maqolalar kibr oralagan ko’nglimni, ko’nglim ne fikr-u xayolimni ostin-ustun qildi. Domlaga shogird tushmoq ishtiyoqida azza-bazza Toshkentga yo’l oldim.

Sirdaryo viloyati soliq inspeksiyasida ishlaydigan Azimjon tog’am bilan domlani izlab-izlab, Davlat va jamiyat qurilish akademiyasidan topdik. Ilmiy ishlar bo’yicha prorektor Najmiddin Komilovni qo’riqchilar ham boshqacha hurmat qilarkan – serjantlardan biri o’zi bizga yo’l ko’rsatdi.

Bizni keng, shinam kabinet eshigida ozoda kiyingan salobatli domla qarshiladi. Qisqa hol-ahvol so’rashuvdan so’ng tog’amning poyintar-soyintar gaplaridan muddaoni tushungan domla menga yuzlandi:

- Diplomingiz qanaqa sizni?
- Tojikiston diplomi.
- Pasportingiz-chi?
- Hozircha SSSR pasportida yuribman.

Domla birpas jim o’tirib, keyin tog’amga qarab muloyimlik bilan gap boshladi:

– Yangi qoida chiqqan deng. Diplomni nostrifikatsiya qilish kerak. Test markazi qo’shimcha imtihon olarkan. Savollari biram

g’alati... Pasport olish ham oson emas. Bir shogirdimning pasporti bo’yicha iltimos qildim. Olimlarni hamma hurmat qiladi-yu, lekin iltimosini bajarmaydi. O’zbekiston pasportini olib berish qo’lmdan kelmadi. Holbuki, uyam Moskvaga o’qishga ketib, endigina qaytib kelgan edi.

Domla! Men sizning oldingizga diplomimni nostrifikatsiya qilib bering yo pasportimni almashtirib bering deb kelganim yo’q. Mabodo aspiranturaga o’qishga kirsam, menga ilmiy rahbar bo’lishga rozimisiz? Shundan gapiring.

...Ochig’i, hozir ham o’sha betamizligim, gustoxligimni eslasam, yuzim xijolatdan



lovullab yonadi. Ammo nachoraki, “Yoshlik – tentaklikning bir turi” (hadisi sharif) ekan.

Domla pastga qaragan holda bir dam sukut saqlab, so’ng muloyimlik bilan menga boqdi:

- O’zbekcha zo’rg’a gapirar ekansiz, dissertatsiyani qanday yozasiz, taqsir?
- Shunchasini ikki-uch oyda o’rgandim, bu yog’iniyam amallarman, – deya yana “egar”dan tushmadim men.

Suhbatimiz davomi tojikcha kechdi. Domla universitetdagi ustozlarim, o’qigan kitoblarim, qiziqishlarim haqida surishtirib, so’ng aspirantura bo’limiga uchrashimni tayinlab, juda ıliq xayrlashdilar. Kuzatayotgan vaqtda bir gapni shunchaki yo’liga aytgandek qo’shimcha qildilar:

– Ilmda qaysi tilda tadqiqot olib borishingiz unchalik muhimmas. Muhimi – fanga nima hissa qo’sha olishingiz. Shaxsan men uchun Bertels ayrim vatandoshlarimdan ham, millatdoshlarimdan ham yaqinroq.

– Liftga kirganim zahoti vıjdonim uyg’ondi shekilli, ichimda o’z-o’zimni malomat toshlari bilan toshbo’ron qila kettim: “Ey, sen, diplomini hali qo’lga ham olmagan, fuqarolinging tayini yo’q olifla! Yoshi otangdan ham ulug’ professor, prorektor odam muloyimligi, husni xulqi bilan bir chaqaga ham arizasligingni ko’rsatdi-qo’ydi. O’l bu kuningdan! Yoshing bir joyga borganda birorta yigitcha shunday betgachoparlik qilsa, kechirarmiding? Aslo! Qanday ulug’ odam ekan-a bu Komilov deganlari!”

O’shanda o’zimga so’z berdim – nima bo’lsa ham Toshkentga ko’chib kelib, Najmiddin Komilovning etagini mahkam tutaman.

Bir yildan so’ng pasport muammosini hal qilib, aspiranturaga kirdim va ustozning rahbarligida ilmiy ishimni boshladim.

ACHCHIQ SABRNING SHIRIN MEVASI

Bir kuni ilmiy ishim doirasida maqola tayyorlab, ustozning huzuriga olib bordim. Maqolada rahmatli Natan Malleayevning kitobidan ıqtibos keltirib, o’zimcha muallifning rosa po’stagini qoqqan edim. Malleayev domlanning boshqa din vakili ekani,

islom dini ta’limotini bilmasligi, bilsa ham tan olmasligini ham qistirib o’tgan edim. Domla maqolani diqqat bilan o’qib, so’ng qaytarib berdilar:

– Ilmni tanqiddan boshlabsiz-ku, taqsir?! Boshqa hech narsa demadilar. Yotoqxonaga qaytib, ustozning “Tasavvuf” kitobini qayta o’qiy boshladim. Domla juda nazokat bilan, ko’p hollarda xatoga yo’l qo’yanlarning nomini ham tutmay yuzlab g’alati mashhurlarni isloh qilganlarini ko’rib, Boburning o’sha kitobda keltirilgan “Yo’lni ne bilgay kishi to rahnamo ko’rsatmagay” satrining mohiyatini qaytadan kashf etgandek bo’ldim...

“Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” mavzusidagi dissertatsiyamning uchinchi bobi Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam siyrati xususida edi. Domla bir kuni suhbat chog’ida so’radilar:

– Alisher Navoiy g’azallarida Rasululloh (s.a.v.) ko’p hollarda “habib” sifati bilan eslangan. Manbasini aniqlasak bo’ladimi?

Qur’oni Karimda ham, “Sahihi Buxoriy”da ham Payg’ambarimizga nisbatan qo’llangan ushbu sifatga oid biror oyat yo hadis topolmay, rosa izlandim. Diniy ulamolarimizga qilgan murojaatlarim ham javobsiz qoldi.

Bundan chorak asr muqaddam internet bazasi ham g’aribgina, islomiy manbalar yetarli emas edi. Izlab yurganim hadisni qidir-qidir “Sunani Termiziy”dan topdim. Topgunimcha besh oycha vaqt o’tib ketibdi. Xijolat aralash xursandlik bilan ustozni yo’qlab bordim. Domla diqqat bilan yozganlarimni o’qib:

– Achchiq sabrning mevasi shirin bo’ladi, – dedilar odatdagidek donishmandlik bilan.

“SIRNI O’ZIM BILAN OLIB KETAMAN”

Ustozning oilasi shogirdlarni xuddi tug’ishganidek qabul qilgan edi. Ellik yilga yaqin vaqt davomida ikkita qozon osib, birida domlaga parhez taom, birida oila va mehmonlarga tansiq ovqatlar pishirishdan charchamagan Muzaffara yangamullomizning so’zlari o’tkir bo’lsa ham, qalbi yumshoq, fidoyi bir ayol o’laroq domlaga mushfiq, mehribon edi. Najmiddin aka umrining oxirigacha bozor-o’char va boshqa turmush tashvishlaridan ozod qilingan edi. Balki shu ham bir sababdirki, ustozning suhbatiga biror marta dunyoviy tashvishlar, siyosiy va adabiy g’iybatlar oralamagan edi.

Umrining oxirida domla biroz yotib qoldi. “Farzandnoma” kitobi muallifi Obiddin Mahmudov, angrenlik ma’rifatparvar tadbirkor Rahmon Davlatov hamda kamina navbat bilan u kishiga tong otguncha suhbatdosh bo’lardik. Kunduzi biroz uxlab, tunni bedor o’tkazadigan ustoz bizga sokin va xasta ovozda kechmishlarini gapirib bergani kechagidek yodimda.

deya qo’shimcha qildi Alagozov. Prezident qizning o’ldirilishi bilan bog’liq ishni o’z nazoratiga olgan.

VIKIPEDIYAGA “URUSH”

Ilon Mask X tarmog’ida o’zining xAI sun’iy intellekt kompaniyasi Grokpediya loyihasi ustida ishlayotganini ma’lum qildi. Bu yangi bilim platformasi bo’lib, Vikipediya nisbatan “sezilarli darajada yaxshilangan” deb sifatlandi.



Maskning so’zlariga ko’ra, Grokpediya xAI kompaniyasining yanada ulkan vazifasi – “koinotni idrok qilish”ning bir qismiga aylanishi kerak. Yangi platforma manbalarga

Onasi Qur’onni xatm qilmaguncha o’n yoshigacha maktabga bermagani; ro’za tutgani va “eski yozuv”dan xabardorligi uchun maktabdan haydamoqchi bo’lganlarida tatar millatiga mansub mayzada bir o’qituvchi “Kompartiyaga eskichani biladigan kadrlar ham kerak”, deb joniga ora kirgani; Toshkentda ijarashinlik va muhtojlikdan qiynalayotganini ko’rib, ma’naviy padari – Qutbiddinxon eshon o’z hovlisining yarmi-ni arzongina narxga sotgani; Toshkent dorilfununi va Prezident devonida ishlagan davrida davlat uy bergani-yu ikki o’g’lini vatanli qilgani; himoyaoldi jarayonlardagi qiyinchiliklar va ustozlarning yaxshiliklari...

OLIM-U ILM-U AMAL

Bu hikoyalarning har biri o’z holicha muruvvat va odamiylik, to’g’rilik va halollikdan saboq edi, aslida. Ayrim voqealarni ikki-uch marta ham eshitdik, tasannoki, domla har safar bir xil, birorta yolg’on qo’shmasdan, ortiqcha pardoz bermasdan gapirib bergan edi. Ayrim zamondoshlarimiz haqidagi ba’zi qitmir savollarimga javoban esa “Bu sirni o’zim bilan olib ketganim ma’qul”, deb gapni qisqa qildirdi.

TAFAKKUR KARVONINING SARBONI

Mamlakatimizda minglab fan doktori, professor bor. Xo’sh, ulardan qanchasi chinakam olim?.. Nazarimda, haqiqiy olim shunchaki unvondor olimdan ılmning zalvorli muammolarini hal etgani bilan ajralib turadi. Najmiddin Komilovning har bir asari, har bir maqolasi fanning eng dolzarb muammolarini yechishga qaratilgani bilan qadrliidir.

Domla, avvalo, mumtoz tarjimashunoslik bobida maktab yaratdilar. Xorazm tarjima maktabiga oid ulkan tadqiqot orqali o’zbek mutarjimlik san’ati ko’p asrlik tarixga ega ekanini ko’rsatib berdilar. Unga qadar ilmda “o’zbek tarjima san’ati ruslar sharofati bilan vujudga kelgan” degan da’vo ilgari surilgan edi. Najmiddin Komilovning dissertatsiyasi ilovasida Xorazm tarjima maktabining yuzdan ziyod namunasi keltirilganki, shu birgina fakt o’zbek tarjima san’atining ildizi nechog’li chuqur va baquvvat ekanini tasdiqlaydi.

Sovet davrida mumtoz adabiyotimiz mehnat vasfi, ijtimoiy-siyosiy g’oyalar, din va dindorlar tanqidi, peyzaj, ishq-muhabbat, xalqlar do’stligi kabi mavzu-motivlar tegrasida, yagona qolipda o’rganilar edi. Ustoz salmoqli maqolalari, tadqiqotlari bilan daqqi qolipni yakson qildilar va mumtoz adabiyotni anglash, idrok etishning mutlaqo yangi metodologiyasiga asos soldilar.

Tasavvuf ta’limoti ham ilmda shunchaki bir moziy voqeligi o’laroq o’rganilgani ma’lum. Najmiddin Komilov tasavvuf go’zal axloqni shakllantiruvchi sarchashma, odamlarni birlashtiruvchi, jamiyatni fozillik maqomiga ko’taruvchi ma’rifiy kuch ekanini ko’rsatib berdi. Domla har bir fikrini sahih manbalar bilan quvvatlantirgani, Qurayshiy, Sulamiy, Navoiy, Jomiy, Iroqiy kabi tasavvuf

mutafakkirlari risolalariga tayangan holda xulosalar chiqargani e’tiborga molikdir. Ikki jildlik “Tasavvuf”, “Najmiddin Kubro”, “Komil inson haqida to’rt risola”, “Faqr nuri ila porlagan qalb”, “Xizr chashmasi”, “Ma’nolar olamiga safar”... bu asarlarning har biri ilmda katta voqea bo’lgan edi.

Najmiddin Komilovning Sharq-u G’arb ilmiy, adabiy aloqalariga doir tadqiqotlari alohida bir olam. Ustoz “Tafakkur karvonlari” kabi yirik asarlari bilan ovrupotsentrizm da’volari puch ekani, Mag’rib-u Mashriq xalqlari o’zaro bahramandlik asosida taraqqiy etgani, G’arbning manaman degan mutafakkirlari ham Sharq ma’naviy xazinasidan ilhomlanganini isbotlab berdilar.

Mubolag’asiz butun umrini, borlig’ini ilmga baxsh etgan ustoz “Ilohiynoma”, “Mantiq ul-tayr” (Fariddin Attor), “Futuvvatnomayi sultoni” (Husayn Voiz Koshifiy), “Zubdat ul-haqoyiq” (Aziziddin Nasafiy), “Maorif” (Sulton Valad) kabi Sharq ma’naviyati durdonalarini ham o’zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildilar.

Tafakkur karvonining sarbonlaridan biri bo’lgan Najmiddin Komilovning ilmiy-ma’naviy merosi haqida ko’p va xo’b yozish mumkin. Hazrat Alisher Navoiyga chuqur ixlos qo’yan ustoz bir maqolasida mutafakkir bobomizi ijodini Xizr chashmasiga o’xshatgani bejiz emas. Zero, domla umrbod Navoiy ilgari surgan maslakka sodiq bo’lmoqqa intilib yashadi. Jumladan, “Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil, / Emdiki ilm o’ldi, amal aylagil” degan purma’no bayt ustozning hayotiy shioriga aylanganiga biz shogirdlar shohidmiz.

SO’NGGI O’GIT

2012-yil. Navro’z ayyomida biroz ahvoli yaxshilanib, bizni xursand qilgan ustozni beayov dard yana yiqitdi. Boshi yana yostiqa teggan ustozning yonlaridan bir on ham jilgimiz kelmaydi. O’sha kunlari u kishidan xabar olgani Oliy Majlis qo’mita raisi lavozimida ishlayotgan atoqli yozuvchi Xurshid Do’stmuhammad keldi. Xurshid akaning aytishicha, sobiq kasbdoshlari (Najmiddin aka bir muddat Markaziy saylov komissiyasi raisi lavozimida ham ishlagan edi) ziyoratiga kelmoqchi bo’lib, u kishini vaziyatni bilish uchun yuborgan ekan. Biz ustozning ahvoli ancha yomonlashgani, hozir ham shifokor muolaja qilayotganini aytib, birpas kutishlarini iltimos qildik. Shifokor ketgach, Xurshid aka bir og’iz so’rashgani ustoz huzuriga kirdi. Domlanning lablari dard zo’ridan ko’karib ketgan edi. Ko’zlarini zo’rg’a ochib, mehmonni tanidilar-u:

– Xurshid! Yolg’on! Hammasi yolg’on!!! – dedilar.

Najmiddin Komilovdan eshitgan so’nggi o’gitim shu bo’ldi. Ikki kundan keyin ustoz bu yolg’onchi dunyoni tark etdi...

Janozani juma namozidan keyin muftiy Usmonxon Alimov Hastimov masjidida o’qidi. Domla Sag’bonda yashagani bois Chig’atoy qabristoniga qo’yiladigan bo’ldi.

Qabriston darvozasidan mozor boshi-gacha ustozning safdoshlari, do’stlari, shogird-u muxlislari saf tordı. Izdihom kattaligidan ayrimlarning qo’li hatto bir marta ham tobutga tegmadi. O’sha pallada Parvardigordan o’zimga ham ana shunday chiroyli xotima tiladim, jamiyatga manfaatli ilm sohibi etishini, egallangan ilmga amal qilmoq baxtini, el-yurt hurmati hamda oxirat saodatining go’zal bashoratini so’radim.

Ustozlar bayrami va Ustozning tavallud kuni bahonasida o’zbek ilm-fani tarixida yorqin iz qoldirgan, olimlikning chin timsoliga aylangan Najmiddin Komilovni baqadrihol esladim. Shoyad, ustoz yodi ila ko’nglimiz poklansa!..

Olimjon DAVLATOV, Najmiddin Komilovning shogirdi

JAHON AYVONIDA

UKRAINAGA YANGI KREDIT

Yevropa Ittifoqi Ukrainaga yana 4 milliard yevro miqdorida kredit o’tkazdi. “Transh Rossiya Markaziy banki-ning Yevropa Ittifoqidagi muzlatilgan aktivlaridan tushgan daromadlar hisobidan moliyalashtirildi”, – deb yozdi Ukraina bosh vaziri Yuliya Sviridenko Telegramda.



Kiyevdagi Moliya vazirligi tushuntirganidek, kredit ijtimoiy to’lovlar, infratuzilmani tiklash va harbiy ehtiyojlar uchun ishlatilishi mumkin.

O’LIM JAZOSI TIKLANISHI MUMKIN

Qirg’iziston prezidenti Sadir Japarov pedofillar, shuningdek, ayollarni vah-shiyona tarzda o’ldirganlik uchun o’lim jazosini joriy etishni buyurdi. Bu haqda davlat rahbari matbuot kotibi Asqat Alagozov ma’lum qildi.



Uning so’zlariga ko’ra, Japarov sentyabr oyi oxirida zo’rlangan va bo’g’ib o’ldirilgan 17 yoshli qiz hodisasiga shunday munosabat bildirgan. Jinoyatda gumonlanuvchi Bish-kekdə qo’lga olindi, u 1984-yilda tug’ilgan, muqaddam sudlangan erkak bo’lib chiqdi.

Japarov bolalar va ayollarga qarshi jinoyatlar jazosiz qolmasligi kerakligini aytdi,

kengroq kirish va erkin axborot almashinuvini ta’minlaydi.

NASA OYDA QISHLOQ QURMOQCHI



AQSH Milliy aeronavtika va kosmik tadqiqotlar boshqarmasi (NASA) 2035-yil-gacha Oyda barqaror yashash uchun qishloq qurmoqchi. Bu haqda boshqarma rahbari Shon Daffi Sidneyda bo’lib o’tayotgan Xalqaro aeronavtika kongressida so’z ochdi.

Qo’shimcha qilinishicha, u yerda odam-larning doimiy yashashi uchun barcha

sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yangi qish-loqni atom energetikasi bilan ta’minlash, qishloqqa kosmonavtlarni muntazam joy-lashtirish va qurilishda Oy yuzasidan topil-gan materiallardan foydalanish rejalash-tirilgan.

MEHNATSEVARLIK UCHUN JAZO

Buyuk Britaniyada 16 yil davomida parlament binosini tozalab kelgan Mulikat Ogumodede me’yoridan ortiq ishlagani uchun ishdan bo’shatildi. Bu haqda “The Times” xabar berdi.


Ma’lum bo’lishicha, Ogumodede ikkita joyda ishlagan, yetarlicha dam olmagan. U 2008-yildan beri Deutsche Bank ofislarini ertalab soat 08:00 dan 17:00 gacha tozalagan. Shundan so’ng kechki 22:00 dan ertalab 06:00 gacha parlamentda ishlagan. Bu kuniga jami 17 soat degani. U haftasiga besh kun shu tartibda mehnat qilgan, xodim sifatida uning ish sifati va intizomiga e’tiroz bo’lmagan.

Da’vogarlar dalolaticha, ish vaqti cheklovleri va smenalar orasida kamida 11 soat dam olish talab qilinadi.



O'TMISHDAN SADO

Jaholatga botgan tuzumlarning eng katta dushmani kitobdir. Shu bois, tarixda insoniyat zakosi mahsuli bo'lgan qanchadan qancha kitoblar gulxanlarda yoqilgan, daryolarga oqizilgan. Mintaqamizda "Avesto" dan to yaqin kunlarga ming-minglab kitoblarning kuli ko'kka sovurilgan. Shuning uchun ham buyuk ajdodlarimizning aksar asarlari nomi faqat ro'yxatlardagina saqlanib qolgan. Bu fojia XX asrda, ayniqsa, keng miqyos kasb etib, sovetlar o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab kitoblarni ham qatag'on qilgan.



QABRGA KO'MILGAN KITOBLAR

Tibbiyot fanlari nomzodi Latifjon Bahovuddin o'g'lining bobosi Sayyid Odina eshon al-Karvakiy al-Xorazmiy o'n ikkita kitob va risola yozgan. Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarini sharhlagan. Afsuski, 1937-yilda sovetlar ularni musodara qiladi. Kitoblarning bir qismi elat qabristoni yonidagi masjidga yashirib qo'yiladi. Istiqol zamonida o'sha xona ochilgani-da, kitoblarning barchasi mog'orlab, yaroqsiz holga kelgani ma'lum bo'ladi. Yaxshiyamki, qo'lyozmalar fondida muallifning ayrim kitoblari saqlanib qolgan ekan. Latifjon ularni topib, qayta chop ettiradi. U kishi bolaligini shunday xotirlaydi:

"1942-yil. Bir kuni otam hovliqib keldi va sandiqda saqlanayotgan kitoblardan uchtasini qo'limga tutqazdi. "Odina eshon buvami masjidida yonida melisalar eski kitoblarni yoqishyapti. Bizda ham kitob borligini bilishadi. Kim topshirmasa qamarmish", deb o'sha joydagi melisalarga olib borishimni aytdi. Borsam, hovlida katta gulxan yonib turar, melisalar unga kitoblarni to'xtovsiz tashlardi. Men kitoblarni berdim-u, ortga qarab qochdim. Ammo haligacha o'sha olov tafti yuragimni kuydiradi..."

Bu ayanchli voqea sovetlar "Gitler insoniylikdan yiroq kimsa u kitoblarni yoqyapti!" deb dunyoga jar solayotgan kezlarda ro'y bergan. Eski o'zbek yozuvida bitilgan diniy va dunyoviy kitoblardan hadiksirash va ularni yo'q qilish mustaqillik davrigacha davom etgani haqiqat. Misollarga yuzlanamiz.

Yangibozor tumanining Bo'zqal'a qishlog'ida Otajon mulla yashab o'tgan. Sherg'ozixon madrasasida tahsil olgan, 30-yillar qatag'onidan tasodif tufayli omon qolgan. 1976-yili vafot etgan qori yaqinlari xotirasida "Qo'shqabrlil ulamo" sifatida muhrlanib qolgan. Bu haqda nevarasi Jabborbergan og'a xotirlaydi:

"Buvamning bir nechta kitobi bo'lardi. U kishi o'limi oldidan shunday vasiyat qilgan: "Umrin davomida to'plagan bu kitoblar – bir xazina. Endi ularni o'qiydigan, tushunadigan bir odam qoldi – Kamol qori. Dunyodan o'tganimdan so'ng o'zi kelib, tanlab, keragini olsin.

Qolganini qabrim yoniga yana bir qabr tiklab joylanglar". Vasiyat bajarildi. Lekin elda gap yotmaydi. Ikki yildan so'ng gurlanlik shoir Fozil Zohid ikki kishini yetaklab keldi va ularning kitoblarga xaridor ekanini aytdi. U otamga deydi: "Madamin aka, siz kitoblar narxini ayting! Bular sotib olishadi. Qolaversa, kitobning qabr ichida yotishi yaxshimas. O'qilmagan kitob – botil, deyishadi mashoyixlar. Bu insonlar ushbu kitoblarni o'qishadi, tahlil qilishadi va noyob bo'lsa qayta nashr qilish niyatlari ham bor!" Otam hech narsa demaydi. Ammo zamon yomon edi. Bu haqda tegishli idoralar eshitib qolishsa, vaziyat boshqa tomonga o'zgarib ketardi. Shularni o'ylagan otam kitoblarni mehmonlarga berishga rozi bo'ladi. Narxi esa Fozil aka aytganday bir tuyaning puli bo'ladi. Kitoblarning keyingi taqdiridan xabardor emasmiz. Bir tuya narxiga baholangan kitoblar "tuya qilindi"mi yoki ularga ikkinchi umr bag'ishlandimi? Bilmadik".

Umid qilamizki, bu kitoblar millatparvar, ziyoli insonlar qo'lga tushgan va qaysidir ilmgohlarning g'aznalarida saqlanmoqda.

Bo'zqal'alik muallim Quronboy aka yana bir voqeani eslaydi:

"Gurlanning Eshimjiron qishlog'idagi qabristonda ham bir emas, ikki qabrga kitoblar ko'milgan" ekan. 1985-yilda shu qabrlarni ochishgan. Bir qabrdagi kitoblar ancha yaxshi saqlangan, ikkinchidagilari esa namdan titilib ketgan ekan. Bu haqda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida ham yozishgandi... O'sha davrda hukumat arabiy imlodagi

barcha kitoblarga birinchi navbatda diniy nuqtayi nazardan yomon ko'z bilan qarardi. 1937-yillardagidek bo'lmasa ham, uyida "eskicha" kitob saqlagan odam yaxshigina jazoga tortilardi".

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: ilmiy zotlar nega qo'lidagi kitoblarni Sharqshunoslik institutiga topshirmagan? O'tgan asrning 60–80-yillarida bu institut fuqarolar bisotidagi eski kitoblarni izlashi, ularni xarid qilishi haqida bot-bot eshitib qolardiku! Bizningcha, eski zamon nonini yeb ulg'aygan odamlar 30-yillardagi qatag'ondan keyin tuzumga ishonmagan. Tegishli idoralar xabar topsa, "Shu vaqtgacha nega topshirmagansan?" deb siquvga olishi hech gap emas-da.

Yaqinimiz Abdulla maxsum to'qson yoshida vafot etdi. Oradan o'n yilcha o'tgach, nevarasi baxmal matoga o'ralgan bir kitobni ko'tarib keldi. Kitob lotin yozuvida bo'lib, unda turk posholarining suratlari ham bo'lib, qatag'ondan omon qolgan asarlardan edi. Demak, yo'q qilingan kitoblarning hammasi diniy mazmundagi asarlar bo'lmagan.

Abu Rayhon Beruniy oltmish yillik umrida bir yuz ellikdan ortiq kitob yozgan bo'lsa, ularning atigi to'rtidan biri bizgacha yetib kelgan. Qolgan asarlari qayerda? Yoqilgan, ko'milgan kitoblar orasida Beruniy va boshqa ulug' allomalimiz qalamiga mansub kitoblar bo'lmaganiga kim kafolat beradi?

Otajon mulla kabi insonlar orzu qilgan zamon kelganiga mingdan ming shukronalar aytamiz!

Ro'zimboy HASAN



“Kitoblarni yoqishdan ham og'irroq jinoyat bor, bu – ularni o'qimaslik”.

Rey BREDBERI

JADIDSHUNOSLIK

QODIRIYGA

Adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so'zlarni iste'molga olib kirish va esdan chiqqan tub so'zlarni qayta qo'llashda ijod ahlining badiiy tafakkuri benazir vosita bo'ladi. Xalq ichidan olingan jonli so'zlar ularning ijod xumdonida toblanib sayqal topadi va til boyligiga aylanadi. Albatta, o'zbek tilining tarixi uzoq. Ammo zamonaviy o'zbek adabiy tilining shakllanishida jadid adiblari, shuningdek, XX asrning 20-yillarida faoliyat ko'rsatgan turli matbuot nashrlari va ma'rifiy tashkilotlar aynan milliy til istiqboli bilan bog'liq vazifalarni ham zimmasiga olgan edi, desak, adashmagan bo'lamiz.



Adib "Inqilob" jurnalida bosilgan "O'tkan kunlar" romanida yangidan shakllanib kelayotgan adabiy til bilan birga, mumtoz o'zbek nasrining ifoda usullarini ham qo'llaydi va bu uyg'unlik roman tiliga go'zallik bag'ishlaydi. Zero, yangicha til quruq va sun'iy lashib qolishi mumkin bo'lganidek, butunlay mumtoz nasr tilidan foydalanish ham, ehtimol, o'quvchilar uchun og'irlik qilar edi.

Abdulla Qodiriyning boshlab yozgan asarlari tili bilan "O'tkan kunlar" romani qiyoslanganda, romanda tabiiylik, samimiylilik, xalq jonli tiliga yaqinlik aniq seziladi. Oybek adibning nasrdagi ilk tajribasi bo'lgan "Juvonboz"ning tilini "duoyi salom" tili, jonsiz, bo'yoqsiz, "quruq", deb tanqid qiladi. Oradan hech qancha vaqt o'tmaydi. Adib "Uloqda" hikoyasini e'lon qiladi va u "tirik, obrazli bir til" bilan yozilgan edi. Abdulla Qodiriy asardan asarga badiiy tasvir, uslub va poetik nutq jihatidan ham yuksalib boradi.

Fitrat bosh bo'lgan "Chig'atoy gurguni" jamiyati a'zolari adabiy til ustida jiddiy qayg'urib, o'z qarashlari, taklif va topildqlarini "Tong" jurnalida yoritib boradi. Laziz Azizoda xotirasiga ko'ra, "Gurungning haftalik yig'ilishida har bir a'zoga eski chig'atoy-o'zbek so'zlarini topib kelish yuklanar va buning uchun keksalar, kampirlar, ko'proq qishloq aholisi bilan suhbatlashish tavsiya qilinardi".

Jamiyat a'zolari tomonidan o'sha davrda o'zbek adabiy tiliga kiritilgan "boshqarma", "bildirish", "atama" kabi so'zlar hozir ham keng ishlatiladi. O'zbek adabiy tilining taqdiriga befarq bo'lmagan, asarlari tilini so'zlashuv tiliga yaqinlashtira olgan atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy ham o'sha "gurung"ga a'zo edi.

Romanni o'z vaqtida keskin tanqid qilgan Sotti Husayn ham yozuvchining "o'zbek adabiy tilining takomilida katta xizmati bor"ligini ta'kidlaydi:

Boshlanishi 1-sahifada.

– Etapdan lageringizga kirib, "O'zbeklar bormi?" – deb so'rasam, sizni aytishdi. Yotoq yerimni tayin qilib, ovqatlanib, to'g'ri oldingizga keldim.

U bu so'zlarni shu qadar sekin, qo'rqib aytar ediki, ikki gapning birida "birov eshitayotgani yo'qmi" deganday, atrofga qarab olardi edi. Men ham Toshkentning qayerida turishimni aytdim va kulib so'radim:

- Xo'sh, nima jinoyat qildingiz?
- Ey, mening jinoyatim yo'q, doktor.
- Aybsiz qamamaydilar-ku...
- Aybim bo'lsa ham, juda arzimaydigan...
- Xo'sh?

U yana atrofga bir qarab olib, asta dedi: – O'qchidagi choynonada kechasi to'rt-besh o'rtoqlar to'planib, "O'tkan kunlar" romanini o'qigan edik. Ichimizda bitta-yarimta xufiya bor ekan, shekilli, tegishli joylarga yetkazibdi. Barchamiz qamab, uch-to'rt kun so'roq qildilar. Hammamiz kitobni o'qiganimizni bo'yinimizga oldik. Darhol sud qilib, barchamizni shu yoqqa jo'natdilar. – Necha yilga kesdilar?

– Hammamizga birdek, yigirma yildan. – Hoo, juda barakali qilib berishibdi-ku, – dedim kulib. – Mayli, hechqisi yo'q. Sizlar albatta bu muddatni o'tamaysizlar. Xohlasangiz, Moskvaga bir shikoyat ariza yozib beray?!

– Mayli, rahmat, – dedi va uh tortib qo'shib qo'ydi: – Bir qizimni to'y qilaman deb turgan edim-a...

Men u kishiga ariza yozib berdim. Muddatim bitib uyga qaytgach, bir kuni ko'chadan kelsam, uydagilar: – O'qchilik bir o'rtoq'ingiz qamoqdan kelibdi. Sizga rahmat aytib, mehmonga aytib ketdi, – deyishdi. Men mehmonga bormasam-da, u kishi bilan ba'zan ko'chalarda ko'rishib yurdim..."

2
Adibning kichik o'g'li Ma'sud Abdullayev (1924–1997) xotiralaridan:

"Men boshlang'ich sabog'imni qo'shni Suzuk ota mahallasidagi (hozirgi 23-sonli bog'cha o'rmi) maktabda olganman. Maktab to'rt-besh xona (sinf)dan iborat bo'lib, yanglishmasam, Mahkamboy deganning hovlisida ochilgan edi.

Birinchi yo ikkinchi sinfda o'qib yurgan chog'larim edi. Muallima opam (ismlarini unutganman) bir kuni darsdan so'ng:

– O'g'lim, sen Abdulla Qodiriyning farzandi ekansan. Men dadang yozgan "O'tkan kunlar" kitobini o'zimda yo'qligidan birovdan olib o'qib chiqdim. Endi shu kitob menda ham bo'lsa, degandim. Dadangda bo'lsa, olib kelsang. Bu iltimosimni oyingga aytgin, – deb takror-takror tayinladilar.

Men "xo'b" deb va'da berdim. Maktabdan kelibog' oyimga:

– Oyi, muallima opam men bilan alohida gaplashdilar. Men endi katta bola bo'lib qoldim, – deb maqtanib, ularning iltimoslarini aytdim.

Oyim kulib: – Xo'b. Agar uyda bo'lsa, dadangdan so'rab olib beraman, – dedilar.

Oradan ikki kun o'tdi. Kitobdan darak yo'q. Men va'damni bajara olmaganimga muallima opamdan uyalib, maktabga bormay qo'ydim. Oyim:

– O'g'lim, kitob dadanglarda hozir yo'q ekan. Topib berishga va'da berdilar. Sen ertaga o'qishga boraver, – dedilar.

Menga muallima opamning so'zlari qonundek tuyulgan uchun qaysarligim tutib maktabga bormadim. Kechlik mahali oyim dadamga:

– O'g'lingiz yana maktabga bormadi, – deb shikoyatlandilar.

– Qo'yaver, o'zim gaplashaman, – dedilar dadam kulib.



Ertasiga nonushtadan so'ng dadam meni yetaklab maktabga yo'l oldilar. Borsak, dars boshlangan ekan. Dadam:

– Mayli, biroz kutamiz, – dedilar. Bir mahal muallima opam (sinf oynasidan bizni ko'rib) chiqib, dadamga salom berdilar.

Dadam alik olib:

– Ma'sud o'g'lingiz mening aybim bilan darslarga kelmay qo'yibdi. So'ragan kitobingiz o'zimda yo'q edi. Sababi, siz kabi muxlislar kitobimning so'nggisini ham olib ketishgandi. Uzur, men albatta kitobni

topib, Ma'sud orqali berib yuboraman, – dedilar.

Muallima opam:

– Sizdek aziz insonni ovora qilibman, – deb qayta-qayta uzr so'radilar. Dadam:



TAHSIN AYTISHGA BURCHLIMIZ

“A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” ro‘ma-nini asosan hozirgi‘ adabiy til bilan yozg‘an. Adabiy tilimizning yaxshi ishlanmaganidan xalq orasida iste‘-moldagi‘ so‘zlarni diqqat bilan terib, o‘z o‘rnida ishlatmishdir.

Til ustida maxtarliq, taqdir etarlik ish ko‘rsatkan”. Tanqidchi romanning jozibali tasviriy epizodlariga diqqat qaratib, muallif xalq jonli tili va og‘zaki ijod namunalaridan o‘rinli foydalaniganiga urg‘u beradi.

Oradan bir asr o‘tgan bo‘lsa-da, bugun ham Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos xizmatlarini chin yurakdan e‘tirof etish va adibning mahoratiga tahsin aytishga burchlimiz. Qodiriy ikki asr va ikki turli tuzum chegarasida yashadi. Shu bois, uning asarlari tilida mumtoz nasr bilan yangi o‘zbek adabiy tilining uyg‘unligi aniq kuzatiladi. Eng muhimi, bu poetik til Abdulla Qodiriy asarlariga, xususan, moziydan so‘z ochgan romanlari mohiyatiga juda mos keladi.

Abdulla Qodiriy asarlari uning benazir poetik tafakkuridan darak beradi. Badiiy tafakkur esa nutq hodisasi bilan bog‘liq, albatta. Har bir millat adibi o‘z milliy tilida fikr yuritadi, shu milliy tilning lug‘at boyligiga tayanadi. E‘tibor berilsa, Abdulla Qodiriy o‘zining ayrim qahramonlari, deylik, “Mehrobdan chayon”dagi Xudoyorxon obraziga ham aynan tilga e‘tibor masalasida milliy tuyg‘ularni singdiradi: “Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg‘an yorlig‘ va nomalarni o‘qutib eshitar, munshilarning eshitilmagan arab va fors so‘zlari orqaliq to‘qug‘an yarim turkiy jumlariga aksar vaqt tushunmas: “Enalaring‘ arapqa tekkanma?” deb mirzo, muftilarni koyir edi. Ammo Anvarning yozg‘an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va “shu bala barilaring‘dan ham o‘qug‘anraq chiqar!” deb, boshqa mirzolarning yuragiga o‘t yoqar edi”.

Xudoyorxonning “turkiy jumlalar”ga alohida qaragani, Anvarning inshosini maqtaganini – muhim gap.

Yana bir zarur gap shuki, adib ayni epizoddagi Xudoyorxon nutqiga xuddi tilshunos kabi shunday izoh yozadi: “Xudoyor qipchoqlar ichida o‘skani uchun tili o‘zbekchadir. Enalaring so‘zidagi “ng” harfini “ng” ravishida qalin so‘zlaydir. Bu

kungi farg‘ona o‘zbeklarida ham (ayniqsa qishloqilarda) yumshoq “ng” o‘rnida qalin “ng” ishlatish ko‘b eshitiladir. Hozirgi isloh qiling‘an harfimizda bu qalin “ng”ning maxsus shakli yo‘qdir. Yozg‘anda (n-g‘) harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o‘qug‘anda har kim buni o‘z maxrajidan chiqarolmas, yanglish o‘qur. Bu qalin “ng” o‘zbekcha bir necha so‘zdagina ishlatilmay ko‘b (ellilab) so‘zda iste‘mol qiling‘ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladi. Masalan mashhurlari: zang‘, pang‘, lang‘, darang‘, qalang‘i-qasang‘i, dang‘, to‘ng‘uz, shang‘i, to‘ng‘illamoq, to‘ng‘i, to‘ng‘uch va ang‘iz, ting‘ boshqalar... Eski “ning” “ng” ravishida isloh qilingan. Bu yo‘g‘on “ng” ham “g” harfining ustiga uch nuqta qo‘yulib yozilsamikin...”

Va yana bir eslatma: buyuk adibimiz “alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladi”, deya qayd etgan bu tovushning maxrajiga mos belgi – imlosi hali shu kunga dovur o‘nglangan emas.

Abdulla Qodiriy o‘z qahramonlarini tasvirlashda esda qolarli so‘z va birikmalardan foydalanadi. Masa-lan, Otabek va Kumush, Anvar va Ra‘no tasvirlarida so‘zlarni marjondek ipga tizadi. Ayni paytda, adibning “nafrati”ga duchor bo‘lgan Abdurahmon domla yoki Jannat opa qiyofalari ham o‘quvchining esida qoladi: “Ul (Jannat nazarda tutila-di – B.K.) yerdan bichib olg‘andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarni- dek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi. Kumushbibi o‘ziga tomon kelguchi bu dahshatlik xotinni umrida birinchi martaba ko‘rar edi. “Nima qilib yuribti bu och arvohl!” deb o‘t‘yladi. Xotin o‘n adimlab uzoqdan yuziga sovuq va tushda qo‘rqarliq bir kulgi tusi berdi. Dimog‘i bilan “qix” etib qo‘ydi...”

Asarda bu obrazning qiyofasi “pak-pakana, tep-tekis, chup-chuqur, sap-sariq” kabi ma‘nosi orttirilgan sifatlar, shuningdek, “q” tovushi qatnashgan qator so‘zlar bilan tasvirlanar ekan, ustiga-ustak, o‘sha birgina “Dimog‘i bilan “qix” etib” qo‘yishidan ham xotinning ichki vahshoniyati va niyati buzuqligi anglashiladi.

“Mehrobdan chayon” romanidagi Solih maxdum tabiatining o‘ziga xosligi bayonida u birov bilan so‘zlashganda, “ayniqsa, bir narsa-dan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘skan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini biroz qisib” qarashi va o‘z nutqida “habba” deb qo‘yishi ham o‘quvchilarga ma‘lum, albatta. “Domlaning bu “habba”sinima ma‘noda qo‘llanilar, o‘zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to‘g‘rida izoh ham so‘ramag‘an edilar. Har holda “habba – habali” yoki “ha, barakalla” bo‘lsa kerak. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo‘lg‘anda aksar “habba” deb yuboradir”. Har qachon ham shu bitta “habba” so‘zi esga olinar ekan, o‘quvchining ko‘z o‘ngida beixtiyor Solih maxdum paydo bo‘ladi. Badiiy ijodda topilgan va o‘rnida ishlatilgan bitta noyob so‘zning quvvati ham yozuvchi iste‘dodidan darak beradi.

Qodiriy asarlaridagi hayotiylik muallifning mahorati bilan bir qatorda, uning har bir asar ustida jiddiy izlanishi va faqat san‘atkorga xos nazariya ham bog‘liq. Adib yozadi: “Materialni o‘rganish mahalida eng mayda narsalarga (detallarga) ham ahamiyat beraman. Masalan, men haligi o‘rganmoqchi bo‘lgan yerda qancha daraxt borligi, ularning qanchasi eski va qanchasi yangiligi, men borgan mahalda o‘sha daraxtlarda qanday qushlar qaysi holda qo‘nib turganligi va shunga o‘xshash juda mayda narsalarigacha. Birinchi qaraganda, u mayda narsalar hech ahamiyatga molik bo‘lmaydigandek ko‘rinsa ham, keyinroq foydasi tegib qolishi juda mumkin”. O‘z ko‘zi bilan ko‘r-gan manzaralar tasvirning ishonchli chiqishida yozuvchiga yordam beradi.

“O‘tkan kunlar”ni yozishdan avval adib voqealar kechadigan joylarni ko‘radi, turli ko‘chalardan yuradi, qabristonda tunaydi, xon o‘rdalarini sinchiklab o‘rganadi. Masalan, Qo‘qon o‘rdasining qopisi haqida shunday yozadi: “Ayniqsa, darbozaning ikki biqinidagi ‘o‘g‘irmagul’ tarzi bilan ishlangan guldastalar, darboza ravoqidagi ganchdan qabartirilib yasalg‘an bo‘rtma naqshlar, gullar hali o‘zlarining nafosatlarini unchalik yo‘qotmag‘an edilar”.

Juda nafs so‘zlar bilan berilgan bunday badiiy tasvirlar yozuvchining sinchkov nazariga – qalb ko‘ziga

oid, albatta. Aniq tasavvur qilingan manzaralar tiniq tasvirlanadi, o‘z o‘rniga tushgan so‘z yolqini tafakkur puchmoqlarini yoritadi.

Ba‘zan Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida mumtoz nasrga xos saj san‘atidan ham foydalanadi. Deylik, o‘rdalik bir samovarchi devonani so‘zlatib: “...choyxonada sakkiz yigit,

Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va aniqligi, kam so‘z bilan ko‘p ma‘no berish yo‘sinini qadrlab, yozishda ortiqcha so‘z va jumalarni qisqartirishdan saboq beradi; yozganini odamning yolg‘iz o‘zi tushunib, boshqaning anglay olmasligi unga aslo ma‘qul kelmaydi. Shu bois: “So‘z so‘ylashda va



o‘rtasida bitta chigit; kakir-kukir etar chilim, katta-kichik unga yelim! Bu na balo, bu na qazo?...” desa, boshqa bir o‘rinda – “Salomnoma”da boylarga qarata: “Maskov borib kelibon, minglab foyda qilibon, haftada gap yeyibon, tomga karnay qo‘yibon; xalq qayg‘usin yemayin, maktab ochay demayin; ellik-oltmish qo‘y bergan, sakkiz kunlab to‘y bergan Turkiston savdogarlariga salo-o-om!...” deb yozadi. Bunda savdogarlar xarakteri o‘zaro zidlashib yig‘ilgan so‘zlar vositasida ochiladi.

Xalq maqollari har qanday millat adabiy tilining fasohat va balog‘atini ko‘rsatadi. O‘rnida qo‘llansa, badiiy asar mazmun-mohiyatiga ko‘rk bag‘ishlaydi. Bunday hol Abdulla Qodiriy asarlari tilida ko‘p kuzatiladi. Xususan, “Yaxshi niyat – yorti mol”, “Dardi yo‘q – kessak, ishq yo‘q – eshshak”, “Osilsang ham baland dorg‘a osil”, “Sut bilan kirgan – jon bilan chiqar”, “Kelinni kelganda ko‘r, sepin yoyganda ko‘r”, “O‘rgangan ko‘ngil o‘rtasa qo‘ymas”, “Qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar” kabi maqol va iboralar bu asarlarga zeb beradi. Adib ayrim aytimlarni sarlavhaga ham olib chiqadi.

Bahodir KARIM

BOSHIDAN O‘TGAN KUNLAR

– Yo‘q, xijolat bo‘lmag. Asarimni o‘qib qadrlayotganingiz uchun sizga rahmat aytish mening burchim. Sizga rahmat, – dedilar. Menga: – Ma‘sud, muallima opangga quloq sol. Yaxshi o‘qigin. Qani, darsga kira qol, – deb muallima opam bilan xayrlashib, maktabdan chiqib ketdilar. Muallima opam meni quchoqlab, yuzimdan o‘pib: – Dadang bilan birinchi bor suhbatlashishim. U kishi kamtarin inson ekanlar. Sen kabi yoshlarimiz baxtiga omon bo‘lsinlar, – deb ichkariga bosh-ladilar. Xonadagi jim o‘tirgan bolalarga qarab: – Aziz bolalar! Yaxshi o‘qinglar, odabli bo‘linglar. Kelajakda Abdulla Qodiriydek kamtarin inson bo‘lib yetishinglar, – deb darsni davom ettirdilar. Oradan ikki-uch kun o‘tgach, kechlik mahali oyim: – Kitobni topdingizmi? – deb so‘radilar. Dadam: – Ha, bir do‘stimdan lotin alifbosida bosilganini so‘rab oldim, – dedilar. Ertasiga nonushtadan so‘ng, qog‘ozga o‘ralgan kitobni jildimga solib yo‘lga tushdim. Maktabga borib muallima opamga kitobni berdim. Opa “Rahmat” dedilar. Darsdan so‘ng muallima opam: “Oyingga bergin” deb, buklangan qog‘oz berdilar. Keyin bilsam, o‘sha qog‘oz “O‘tkan kunlar” uchun yozilgan minnatdorlik xati ekan”.

3

Ma‘sud Abdullayev yana shunday xotirlaydi “Dadamni ikkinchi marta qora kursiga o‘tqaz-ganlarida, yozgan asarlarini ham badnom qilishga urinishgan. “Xalq dushmanining yozgan asari” deb, kitobxonlar qo‘lidan tortib olishgan. Biroq, muxlislar kitobni o‘qish man etilgani va

o‘qiganlari uchun jazolanishlariga qaramay, bir-birlaridan olib, yashirib o‘qiyverishgan. Jumhuriyatda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi A‘zamxon Rustamov bir suhbatda shunday hikoya qilgandi: – O‘sha qatag‘on yillarida qancha-qancha odamlar dadangizning asarlarini o‘qiganlari uchun qamalib, azoblandilar... Mening ukamni ham “O‘tkan kunlar” romanining uyida saqlagani uchun qora kursiga o‘tqazgandilar... 1990-yili Shayxontohur tumanidagi 84-o‘rta maktabda otamizning 96 yillik tavalludlariga bag‘ishlangan yig‘ilishga meni ham taklif etishgandi. Anjumandan so‘ng bir piyola choy chog‘ida direktor hikoya qilgandi: – 1945-yili 7-sinfda o‘qir edim. O‘sha paytda taqqiqlangan bo‘lsa-da, adabiyotga qiziqishim tufayli uйда “O‘tkan kunlar”ni o‘qiy boshladim. Kitobni tugata olmaganimdan davomini ertasiga matematika darsida ham o‘qiyverdim. Qiziqib ketib, domla tepamga kelib qolganini ham sezmadman. Domla: “Nima o‘qiyapsan?” deb qo‘lmdan kitobni tortib oldi. Ertasiga direktor xonasiga chaqirib, matematika darsida: “Nima qilib qo‘yganingni bilasanmi? Xalq dushmanining taqiqlangan kitobini o‘qiding-a?!” deb do‘q urdi... Ular: “Ertaga otangni olib kel!” deb kitobni olib qolishdi. O‘sha kuni kechqurun sinfdoshim uyimizga kelib: “Seni tog‘am chaqiryaptilar”, deb aytib ketdi. Borsam, direktor uyda ekanlar. Meni yaxshi muomala bilan kutib oldilar-da, xoli xonaga olib chiqib dedilar: – O‘g‘lim, o‘qiyotganing o‘zbek xalqining sevimli “O‘tkan kunlar” kitobi. Men ham uni sen kabi berilib o‘qiganman. Ming afsuski, senlarning


davringda bu kitob man etildi. Albatta, sen buni bilmagansan. Kimda kim ushbu kitobni o‘qisa yoki saqlasa, boshiga qora kunlar tushadi. Agar bu ishingni birov eshitsa, dadang va men javobgar bo‘lamiz. Senga maslahatim, o‘qigan kitobingning muqovasiga o‘xshash boshqa kitob topib, borib almashtirib qo‘yasan. Kitobingni xonamdagi javonning tepasiga, ko‘zga ko‘rinadigan joyga qo‘yganman. Xona derzasini omonat berkitganman. Sen o‘sha yerdan tushagini. Men o‘rnimdan turdim. Domlam xayrlasha turib: – Seni erta-indin otang bilan xonamga chaqirishlari mumkin. O‘sha kitob haqida so‘rasalar: “Bilmayman, o‘qimaganman” degin, – deb tayinladilar. Men o‘sha tunda direktor aytgan ishini bajarib qo‘ydim. Oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, meni direktorning xonasiga chaqirishdi. Unda direktor, matematika darsiga va charm paltoli notanish kishi o‘tirar edi. Notanish kishi:

– Sen qanday kitoblar o‘qiyasan? – deb so‘radi. Men javob berdim. – Nega taqiqlangan kitob o‘qiding? – deb do‘q urdi. – Men unaqa kitobni bilmayman, o‘qima-ganman, – dedim. – Sen yosh bo‘la turib, yolg‘on gapiryapsan. Mana guvoh bor, – dedi u matematika domlasiga ishora qilib. – Qani, o‘sha kitobni ko‘rsating! – deb buyurdi. Matematika domlasi o‘rnidan turib, javon ustidan kitobni olib, uning qo‘liga tutqazdi. Ular ikkovi kitobning u yoq-bu yog‘ni ko‘rishib, hayron bo‘lishdi... Qaltirab o‘tirgan direktorga jon kirib, o‘rnidan turdi-da, domlaning yoniga kelib: – Balki anglashilmovchilik bo‘lgandir. Bu yoshdagi bolalar unday kitobni o‘qiganlarida ham hech narsa tushunmaydilar, – deb meni qutqarib qolgandir”.

Sherkon QODIRIY tayyorladi.

“Jadid” so‘zi – “yangi ma‘rifat tarqatuvchi” degani. Yoshlarni yangi uslubda o‘qitish-o‘rgatish, ta‘lim berish, dunyoviy fanlar bilan tanishtirish, jamiyatimizga zamonaviy mutaxassislarga tayyorlash, ilmiy ziyolilar yetishtirish, millat madaniyatini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga imkon yaratuvchilar jadidlar hisoblanadi.

Abdulla QODIRIY



XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi.

Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Umar Faxriyev – 1889-yili Buxoro shahrida tavallud topgan. Otasi mudarris bo‘lgan. O‘zi ham 8 yil madrasada ta‘lim olgan. “Milliy ittihad” tashkiloti a‘zosi.

1927-1928-yillarda savdo bilan shug‘ullangan. Mehnat faoliyati davomida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi partiya organlarida turli lavozimlarda ishlagan.

1937-yil 11-fevralda hibsga olingan. Buxoro shahridagi “Jafar xoji” guzarida Mirza Muxtor Hayotovning uyida volostlardan kelgan vakillar orasida Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komitetiga “buxorolik jadidlarni qabul qilish kerak, ularni xalq yaxshi ko‘radi va bu haqda g‘amxo‘rlik qiladi-lar” deganlikda ayblanib, 1937-yil 17-fevralda otuvga hukm etilgan. Shu yili 26-avgustda otib tashlangan.

Aziz Qayumov – 1898-yili Qo‘qon shahrida ulgurji choy savdosi bilan shug‘ullanuvchi oilada tug‘ilgan.

Dastlab akasi Vosi bilan “Temur” milliy ozodlik harakatiga qo‘shilgan. Akasi surgun etilgach, A.Qayumov “Milliy ittihad” tash-kilotining Qo‘qon filialiga a‘zo bo‘ladi.

Davlat siyosiy boshqarmasi tomonidan qamoqqa olingan Marxo‘ja Xomidov, Mamatqul Haydarov, Tolibjon Ohunjonov va boshqalar bilan yaqindan aloqada bo‘lib “hal qiluvchi besh yillik” reja yo‘li uchun qarz olishga qarshi tashviqot olib borganlikda, “sovet hukumati xalqqa nisbatan ayyorlik siyosatini olib bomoqda va xalqni aldamoqda” degani uchun O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi “uchlik” uni 10 yilga mehnat tuzatuv lageriga yuboradi. Hukm 1937-yil 27-avgustdan kuchga kirgan.

Jazoni Sibir lagerida – Kemi-rovsk oblasti Marins shahrida o‘tagan. 1939–1949-yillarda yuqori tashkilotlarga ariza va shikoyat bilan murojaat qilgan, ammo ular inobatga olinmagan.

Alimbek Arabov – 1896-yili Buxoro shahri Bozorgul guzari, 23-uyda tug‘ilgan. 1917-yilgacha savdogarlik qilgan.

U 1937-yil 27-fevralda hibsga olingan. Amirlik davrida amaldor bo‘lgani, ta‘qibda bo‘lgan Qurbo-nov, Mo‘minov va boshqalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, jadidlarning yig‘ilishlarida faol ishtirok etgani, sovetlarga qarshi g‘oyalarni tarqat-gani, “Milliy ittihad” tashkilotiga a‘zo bo‘lgani uchun O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan.

A.Arabov 1937-yil 10-avgustda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining “uchligi” tomonidan otuvga hukm etilgan, hukm 26-avgustda ijro etilgan. Oila a‘zolariga esa mutlaqo xabar berilmagan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, AnDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari muzeyi xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



OGOH BO'LING!

“Ehtiyot bo'lib yut bol tutganda ham, boldan ham goh chiqar shisha sinig'i”, deb yozgandi shoirlardan biri. Munojot shunga ham rozi bo'lardi, faqat bolasi omon qolsa bas edi. Ammo nafsiga qul kimsalarning jinoyati, oilada tibbiy madaniyatning yetarli emasligi, shifokorlarning befarqligi oqibatida norasta go'dak hayotdan bevaqt ko'z yumdi.

Munojot – bog'chada tarbiyachi, Otabek – “ISUZU”da chet hududlarga yuk tashiydi. Bir ketgancha to'rt-besh kunlab safarda bo'ladi. Ularning kenja farzandi O'lmasbek nihoyatda erkatoiy. Bola o'zi shunaqa ayyor bo'ladi: ko'proq e'tibor berilganini sezdimi, atrofdagilarning yelkasiga emas, boshiga chiqaman deydi.

Bu safar ham shunday bo'ldi – xarxasha qilib muzday sharbat ichdi-yu, tuni bilan isitmalab chiqdi. Aksiga olib dadasi safarda. Onasi avvaliga na'matak damlab ichirdi, yotar oldidan ko'krak, kuraklariga yog' surtdi, maymunjonli choy qilib berdi... Yo'q, battar bo'lsa bo'ldiki, beri bo'lmadi: burun bitishi, quruq yo'tal boshlandi. Munojot bolani avvaliga qishloq vrachlik punktiga olib chiqib, shifokor yozib bergan dorilarni ichira boshladi. Asosiy dori kunda uch mahal ikki qoshiqchadan ichiladigan sirop ekan. Lekin ahvol o'nglanish o'rniqa og'irlashib bordi – O'lmasbekning ishtahasi yo'qolib, uchinchi kunga o'tib peshob chiqarmay qo'ydi, isitmalab, badanida qizg'intir toshmalar bodrab chiqdi.

Endi tuman tibbiyot bo'limiga olib bormasa bo'lmaydigan. Bu yerda ham ijobiy o'zgarish sezilmadi. Qaytanga, bolaning qo'l-oyog'i tortishib, mushtdek g'ujanak bo'lib qoldi, og'zi bir tomonga qiyshayib ketdi... Qaysi shifokorga ko'rsatsa, hammasi o'zicha tashxis qo'yadi, birining gapi biriga to'g'ri kelmaydi. Yana deng, hamkasbining xulosasini nazar-pisand qilmay, o'zinikini ma'qullab turaveradi. Eng ayanchlisi, biror mutaxassis tashxisdan oldin ko'rinishi kerak bo'lgan qon va boshqa tahlillar natijasi, UZI, EKG varaqalarini tayinli ochib ham ko'rmadi. Shu orada laboratoriyadagi hamshiralardan biri xususiy klinikaga olib borishni maslahat berib qoldi.

Viloyat markaziga shoshilinch yetkazilgan bemorni qabul qilgan klinika barcha analizlarni qaytadan oldi. Ular davlat tibbiyot muassasalari xulosasini axborot uchun ham qabul qilmadi. Yangi apparatlarda aniqtinij javob chiqar ekan-da. Hartugul tashxis aniqlandi: bolaga ichirilgan sirop nojo'ya ta'sir qilib, ikkala



XUFIYONA QOTILLIK QISSASI

buyrakni ishdan chiqargan. Chora – shoshilinch dializ. Biroq... Kechagina chopqillab yurgan bolakay bugun jonlantirish bo'limida yotar, tanasi shishib ketgan, zahar qonga tarqab ulgurgandi...

Ota-onaning iztirobini so'z bilan ifodalab bo'lmikan...

...Fotiha kuni el og'zida qo'shni qishloqda ham shunga o'xshash holatlar sodir bo'lgani haqida xavotirli gaplar oralab qoldi. Bir necha kundan keyin Sog'liqni saqlash vazirligi yuzlab bolalarning qalbaki dorilardan zaharlanishi yuzasidan bayonot berdi: “Ushbu preparatlar partiyasida etilenglikol mavjud bo'lib, tibbiy qoidalarda belgilangan me'yordan 300 baravar yuqori bo'lgan. Ushbu modda bemorda

Shoyusup tinchgina dorixonada ishlab yurgandi, nima jin urib, onlayn qimorga mukkasidan ketdi. Oqibat, 130 million so'mga tushib o'tiribdi. Umrda ko'rmagan summani o'ylasa, yuragi orqaga tortib ketardi. Qizg'ida kredit ustiga kredit, qarz ustiga qarz olaverdi... Tanishlarni birma-bir xayoldan o'tkazib ko'rsa, qarz olmagani faqat kursdoshi Baxtiyor qolibdi. Toshkentda xususiy klinika



jiddiy o'zgarishlarni, ya'ni qusish, hushdan ketish, tutqanoq, yurak-qon tomir tizimidagi muammolar va o'tkir buyrak yetishmovchiligini keltirib chiqaradi”.

Favqulodda holat e'lon qilinish, bog'cha va maktablarda beriladigan mavsumiy dorilar bir muddat to'xtatildi. Ishonchsiz va xavfli sanalgan dorilar ro'yxati tuzilib, sotish qat'iy taqiqlandi. Hududlarda

ochgan, qator-qator dorixonalari bor, qisqasi, yangi boylardan bo'lgan eski qadrdoni Shoyusupning yuziga eshik yopmadi. Unga hamkorlik taklif qildi, ham qarzdin qutuladi, ham o'zini tiklab oladi.

Ma'lum bo'lishicha, Baxtiyor ham-tovoqlari bilan Toshkent viloyatidagi bir xonadonda dori ishlab chiqaradigan yashirin sex qurgan. Zarur uskuna va qoliplar aylanma

yo'llar bilan Xitoydan keltirilgan, kerakli xomashyo ham asosan “xilvat yo'lak” orqali kirib kelar, ba'zi narsalar internet orqali buyurtma qilinlar, bo'sh qutilar, etiketka, yo'riqnoma singari mayda-chuyda buyumlarni esa sexda o'zlari tayyorlar ekan. Preparatlarni originalidan farqlash qiyin.

– Biznesda eng qiyini nima bilasanmi? – o'smoqchiladi Baxtiyor. – Bozor topish! Faoliyatimiz yildan yilga kengayib boryapti, birin-ketin viloyatlarda hamkorlar topilyapti. Bizning dorilarni sotgan dorixona sotuvchilari va rahbarlarini mukofotlaymiz, qolaversa, ularni bemorlarga tavsiya qilgan va ko'proq sotilishiga hissa qo'shgan shifokorlar o'z ulushini ortig'i bilan oladi. Sening vazifang o'z hududingda mijozlar topish, ular bilan kelishish. Bor-yo'g'i shu.

Shoyusup uyga qaytgandanoq ishga sho'ng'idi. Viloyatdagi barcha dorixonalarga bosh suqib chiqdi. Jamiki kasalxonalarga kirib, navbatchi vrachlardan tortib emlov hamshiralargacha “ko'ngil so'radi”. Yil o'tmay, qarzarlarin qutulib, binoyiday yashay boshladi.

Shunday kunlarning birida sheriklari bordan g'oyib bo'lib qoldi. Na yuk keladi, na qo'ng'iroqqa javob bo'ladi. Televizorda, ijtimoiy tarmoqlarda bitta gap: bolalar qalbaki doridan zaharlanib o'lmoqda.

Shoyusup sheriklari bilan sexni saranjomlashga ulgurmasdan Davlat xavfsizlik xodimlari qo'lga kishan urdi...

XABARLARDAN NAMUNALAR

“Toshkent shahri va Toshkent viloyatida noqonuniy dori vositalarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan shug'ullangan yashirin sex faoliyati to'xtatildi. Yashirin sexda 49 turdagi jami 594 ming donadan ortiq dori vositalari, 168 kg xomashyo, etiketka, yo'riqnoma, bo'sh qutilar, kapsulalar, shuningdek, 50 dona jihoz, jumladan, stanok va qoliplar aniqlanib, ashyoviy dalil sifatida

rasmiylashtirildi”.

“Namangan viloyatida o'tkazilgan tezkor tadbirda qalbaki dori vositalarini tayyorlash hamda sotish bilan shug'ullangan sex faoliyatiga chek qo'yildi. Ushbu sex ko'zdan kechirilganda 763 dona “Anaferon”, 2125 dona “Zodak”, 4000 dona “Vitamin B6” dori vositalari, 570 dona nomsiz flakonlarda siropalar protsessual tartibda rasmiylashtirib olindi”.

“Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida yashirin sexda qalbaki dori vositalarini ishlab chiqargan shaxslar qo'lga olindi. Ulardan umumiy qiymati qariyb 1,9 milliard so'm bo'lgan dori va qadoqlar musodara qilindi”.

Shundan keyin Otabek yolg'iz o'g'li qalbaki doridan zaharlanib vafot etganini tushunib yetdi. O'zi bir ahvol-u, hammadanam ayoliga og'ir bo'ldi. Bechora “Bolamga o'z qo'llarim bilan og'u ichirdim”, deb ancha vaqtgacha telbalanib yurdi. Hayot davom etar ekan, qizlariga ovunib ancha o'ziga keldi. Oradan vaqt o'tib, yangi mehmon kutilayotganini bilgan oilaning firoq otashi pasayganday bo'ldi... Ammo hali ungacha bir necha yillik yo'l bor.

Jabr ko'rgan oilalar, yuzlab otanonalar qatori Otabek ham sudda qatnashdi. Unga so'z berilar ekan, qarshi tomonning advokati ma'naviy zarar undirib berilishi to'g'risidagi bandlar bilan tanishtirmoqchi bo'lganida chidab turolmadi, nafrati qo'zib ketdi:

– Men bu yerga pul undirish uchun kelmadim! Bular bolamni o'ldirdi. Agar o'g'lim qaytib kelganida edi, o'zim bularning boshidan tillo sochardim. Harom pullari o'zlariga buyursin! Bular begunoh bolalarning qotili! Nimaligini ko'ra-bila turib, zahri qotil tayyorlab odamlarga pullash... Bo'ri to'dasi ham ojiz qo'zichoqqa rahm qiladi, degan gap bor. Farzand dog'ida kuygan ota-onalarning jarohatiga malham topiladimi? Endi qanchadan qancha oilalar bir umr shu og'riq bilan yashashga mahkum. Bu iztirobning o'lchovi qanday? Bu yog'i qanchadan tushadi endi?! Mening yagona tilagim – odil hukm!

Zal suv quygandek jim-jit, hamma-ni uni o'chgan, ora-sira ayollarning piq-piq yig'isi sukunatni buzadi. Jinoyatning darajasi og'irligi, jabrlanuvchilar sonining ortib borayotgani sababli so'nggi hukm keyingi majlisda o'qiladigan bo'ldi...

Jamoliddin BADALOV

TILBILIM



QUTQARIB QUTLASH

Tilimizda qadim-qadimgi zamonlarda baxtli odam iborasi bo'lmagan, uning o'rniga qutli odam deyishgan. Bir so'z bilan aytganda, qut so'zi baxt ma'nosini bildirgan. “Qutlug' bo'lsin” degan ibora shundan qolgan. Baxt so'zi asli forsiy bo'lib, “taqdir”, “nasiba”, “ulush” ma'nosini anglatgan. Bu so'z tilimizga keyingi zamonlarda kirib kelgan.

“O'zbek tilining etimologik lug'ati”ga ko'ra, qadimgi tilimizda *qut* degan fe'l bo'lgan va u “og'ir, xavfli holatdan xalos qil” ma'nosini anglatgan. Shu fe'lga -qar ortirma qo'shimchasi qo'shilib, *qutqar* fe'li hosil bo'lgan. Lekin bundan ko'ra “Turkiy tillar etimologik lug'ati”da Herman Vamberining bir fikri menga ko'proq ma'qul keldi. Vamberi *qutqar* va *qutul* so'zlarining tub ildizini baxt ma'nosini anglatgan *qut* so'ziga olib borib taqaydi. Bu farazni Resenen ham qo'llab-quvvatlagan. Yana ba'zi olimlar qutqarmoq va qutulmoq so'zlarining o'zagi – *qut* “qochmoq”, “tugatmoq”, “ketmoq” ma'nosini anglatadi degan farazlarni ilgari suradilar.

Shu o'rinda, bir jihatga e'tibor qilish kerak. Og'ir qayg'udagi yoxud mudhish vaziyatdagi odamning qutqarilishi unga qut berilishidir. Qutqarilgan odam qutli bo'ladi. G'am-tashvishdan qutulishning o'zi qut.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

“O'QIB KIM HAM BO'LARDING” DEMANG!

“O'qib kim bo'lasan?” Shu gapni ko'pchilik ko'p marta aytadi. Mahallada yoki qarindoshlar orasida omadi kelib qolgan bir odamni ko'rsatib, doim “omad ilmdan ustun” yoki “bozor uchun ko'p aqlning keragi yo'q, pulni sanashni bilsa bo'ldi” deyishadi. To'g'ri, mayda savdolar uchun to'yingan aql kerak bo'lmas, lekin katta savdo uchun, albatta, kerak.

Institutda o'qish ham aqli bo'lding deganimas. Iltimos, institutga borib, faqat o'ynab yurib bitirgan bolani misol qilib, “mana, o'qigan, lekin qo'lida ishi yo'q, bekorchixo'ja” demang. O'qish degani – faqat oliy ta'lim emas, doim o'qish, izlanish degani.

Men shu paytgacha institutga o'qish uchun borib, kam bo'lgan odamni ko'rmadim. Ishoning, dunyodagi ko'plab milliarderlar ilm orqali yuksalgan yoki ularning sulolasini kimdir ilm manbayi bilan boyitib qo'ygan.

Buni tushunmagan ba'zi ota-onalar 100 ming dollarlik mashina minib yuradi, lekin bolasining bilim olishi uchun 200 dollar sarflashga og'rinadi. Agar rivojlanish kerak bo'lsa, pulni ayamasi lozim.

Siz shunchaki boy bo'lmaysiz. Siz avval ilm olasiz, ana shu ilm sizni boy qiladigan vositaga aylanadi.

O'zing-chi deysizmi?

Olgan bilimlarim meni Londongacha olib bordi. U yerda 100 foiz bepul o'qib, dunyo ko'rib, Angliyaning nufuzli kompaniyasida menejer bo'lib ishladim. Ora-orada o'zimcha shukr qilardim: “Uyda, xontaxtada kitob o'qigan, til o'rgangan bola hozir inglizlar ustidan rahbar bo'lib ishlayapti”, deb. Bu yerda, ya'ni Londonda yaxshi ofis ishiga kirishingiz, osmono'par binoda ishlashingiz uchun rostakam yuzma-yuz intervyu bo'ladi. Ular sizdan yutuqlaringizni umuman so'ramaydi. Ular sizdan ILM so'raydi. Ilm – bu ne'mat. Undan foydalanmoq kerak!

Alisher HOSHIMJONOV

Facebook



Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 760

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 122

Lotin yozuvida – 11 638

Media kuzatuvchilar – 77 693

Buyurtma: G – 1040.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz